

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**УДК: 339.97(510)**

**ББК: 65.9(5 КИТ)**

**Н – 53**

**Akramova Saida Alisherovna**

**MAVZU: “KOREYA RESPUBLIKASI BANK TIZIMINI RIVOJLANISH  
XUSUSIYATLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI”**

**5A341001 – Mamlakatlar mintaqashunosligi (iqtisodiyot va  
mamlakatshunoslik) – (Osiyo Tinch Okeani mintaqasi)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent Mirxanova D.A.**

**TOSHKENT - 2012**

**Magistrlik dissertatsiyasi himoyaga tavsiya etiladi:**

**Magistratura bo'limi boshlig'i**

**Xabibullaev A.**

## MUNDARIJA

Kirish

### I-BOB. BANK-MOLIYA FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Banklar va bank tizimining yuzaga kelishi va rivojlanishi
- 1.2. Zamonaviy bank tizimining tuzilishi
- 1.3. Xalqaro bank tizimi shakllanishi va uni tartibga solish  
xususiyatlari

### II BOB. KOREYA BANK TIZIMI FAOLIYATI TAHLILI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

- 2.1. Koreya bank tizimining rivojlanish bosqichlari
- 2.2. Osiyo moliyaviy inqirozidan keyingi davrda Koreya bank  
tizimining xususiyatlari
- 2.3. 2008-2010 yillardagi moliyaviy inqiroz hamda inqirozdan  
keyingi davrda Koreya bank tizimidagi o'zgarishlar

### 3-BOB. JANUBIY KOREYA BANK TIZIMI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

- 3.1. Koreya hukumatining moliyaviy inqiroz sharoitida banklarni  
qo'llab-quvvatlash siyosati
- 3.2. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi rivojlanishi  
xususiyatlari
- 3.3. O'zbekiston-Koreya bank tizimlarining hamkorligi  
yo'nalishlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** Zamonaviy bank tizimi- bu barcha rivojlangan mamlakatning milliy xo‘jaligining eng muhim soxalaridan biridir. Bank tizimining iqtisodiyotdagi asosiy vazifalari: davlatning to‘lov va xisob-kitob tizimlarini boshqaradi; tijorat bitimlarining katta qismini investisiyalar, kredit operatsiyalar va omonatlar orqali amalga oshiradi; moliyaviy institutlar bilan birgalikda banklar aholi jamg‘armalarini korxonalar va boshqa ishlab chiqarish tizimlariga yo‘llashdan iborat. Tijorat banklari, davlatning pul-kredit siyosatiga muvofiq ravishda, pul oqimlarini, ularning almashinuvi tezligigiga, emissiyasiga, umumiy massasiga, muommaladagi naqd pullar miqdoriga ta’sir ko‘rsatgan holda tartibga soladilar.

Banklar faoliyati tomonidan tartibga solinuvchi pul massasi o‘shining barqarorlashtirish, inflyatsiyaning o‘sh sur‘atlarini pasaytirish, narx darajalari barqarorligining garovidir, bu esa o‘z o‘rnida bozor munosabatlarining milliy xo‘jalik iqtisodiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy bosqichdagi bank tizimi bu- o‘z mijozlariga turli turdagi xizmatlarni- an’anaviy bank ishi asosi bo‘lgan depozit-ssuda va xisob-kitob operatsiyalaridan boshlab, bank tizimlari tomonidan qo‘llaniladigan pul-kredit va moliyaviy instrumentlarning eng yangicha ko‘rinishlarini (lizing, faktoring, trast va xakozo) qamrab oladi.

Barqaror, egiluvchan va samarali bank infratuzilmasini yaratish O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning eng muhim va qiyin masalalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Inqiroz avjga chiqqan davrda davlatlarning iqtisodiyotga keng miqyosda aralashuvi birinchi navbatda bank-moliya tizimi likvidligini qo‘llab-quvvatlashga, ipoteka kreditlari sohasidagi o‘pirilishlarni bartaraf etishga qaratilib, iqtisodiyotning real sektor tarmoqlariga, ishlab chiqarishga, kichik biznes va tadbirkorlik sohalariga kam e’tibor berilgani vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekiston bank tizimi qat’iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo‘lib, ayni paytda u belgilangan qator normativlar bo‘yicha mustahkam pozitsiyalarga ega.

Banklarimiz kapitalining likvidlik darajasi 23 foizdan oshadi. Bu esa banklar monitoringi bilan shug‘ullanadigan xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko‘pdir.

Umumiy aktivlari mamlakatimiz bank tizimining 90foizidan ortig‘ini tashkil qiladigan 14ta tijorat banki “Fitch Reytings”, “Mudis” va “Standart end Purs” kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining “barqaror” degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo‘ldi.

Ammo, 2010yilda va keyingi yillarda bank tizimida ipoteka va iste‘mol kreditlari bo‘yicha qaytarilmagan kreditlar hajmining o‘sishi oqibatida bankrotlikning yangi xavfi to‘lqini vujudga kelishi mumkin.

Davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta‘sirini e‘tiborga olgan holda, bank-moliya tizimining barqarorligini ta‘minlash muhim ustivor vazifa bo‘lib qolmoqda.”<sup>1</sup> Shunga bog‘liq holda bank tizimi faoliyati bo‘yicha chet el tajribasi O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti rivojlanishida katta qiziqish kasb etadi.

Yangicha bank mexanizminini yaratish, kredit uyushmalarining butun dunyodada tan olingan va bozor bank tizimiga asoslangan ko‘p asrlik tajribaga tayangan ishlash prinsiplarini tiklagan xoldagina amalga oshirish mumkin.

Shuning uchun bank tizimini shakllantirishda yuqori samaraga ega bo‘lgan xorijiy tajribaning o‘rni muhimdir.

Bugungi kunda, moliyaviy, kredit muassasalarning, xizmat ko‘rsatishning yangicha metodlari yaratilmoqda. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganlarni xisobga olgan holda, xorijiy mamlakatlar bank tizimining Koreya bank tizimi misolida, shakllanish va rivojlanish tamoyillarini o‘rganish, hamda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirishda qo‘llanilishi dolzarb xisoblanadi. Shuningdek,

---

<sup>1</sup> И.А.Каримов 2009йилнинг асосий якунлари ва 2010йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устивор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.

rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olayotgan Koreya Respublikasi bank tizimini o'rganish muhimdir. 1997-98yillardagi Osiyo moliyaviy inqirozidan qattiq aziyat chekkan, keyinchalik ko'plab isloxlarning amalga oshirilganligi natijasida, 2008-yil jaxon moliyaviy inqiroziga nisbatan bardoshlilikini namoyon etgan va shu bilan birga bank tizimida oshirilayotgan islohatlar mamlakatni qisqa muddatlarda inqirozdan butunlay olib chiqib, mamlakat iqtisodiyotini yanada o'sishini bashorat qilmoqdadir.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi,** dunyo bank tizimlarining shakllanishi, ularning rivojlanish tendensiyalari, bank tizimining xususiyatlari hamda inqirozdan keyingi holatlari horij olimlari: Moskvina V.A., Antipova O. N., Lavrushin I.O., Suxov P.A., Moskovina L.A., Kaufman I.I., Miller R.L., Van-Xuz D.D., Pollard A.M., Kim San Von va boshqalar, shuningdek o'zbek olimlari Akramov E.A., Abdullayeva Sh.Z., Rashidov O'.Yu., Berjanov S.A., Qodirov A., Xolmetova U.T. va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Iqtisodiy inqirozlar sharoitida Janubiy Koreya bank tizimi ilmiy va amaliy jihatlarida o'zbek iqtisodiy adabiyotlarida yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur ishning dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqot ishining manbalari.** Quyidagi belgilangan masalalarni amalga oshirish uchun nazariy baza sifatida qonunchilik va me'yoriy xujjatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning mavzuga oid asarlari, tahliliy manbalar, xorijiy va milliy mualliflarning ilmiy-tadqiqot ishlari, internet-resurslar xizmat qilgan.

**Tadqiqot ishining maqsadi** Koreya Respublikasi bank tizimi faoliyatini tahlil qilish va uning tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha tafsiyalar ishlashdan iborat. Demak, mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgiladik:

- Jahon zamonaviy bank tizimi va uning rivojlanish yo'nalishlarini banklar va bank tizimining yuzaga kelishi va rivojlanishi, iqtisodiyotda banklarning vositachi sifatida o'zni va roli, hamda jahon zamonaviy bank tizimining tuzilishi jihatlari tomonidan ko'rib chiqish;

- Koreya bank tizimining rivojlanish bosqichlari hamda xususiyatlarini tahlil qilish;
- Moliyaviy inqirozlar sharoitida Koreya bank tizimidagi o'zgarishlarni o'rganib ularga izoh berish;
- Janubiy Koreya bank tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish;
- Koreya hukumatining jahon moliyaviy inqirozi sharoitida banklarni qo'llab-quvvatlash siyosatini yoritib berish;
- O'zbekiston-Koreya bank tizimlarining hamkorlik yo'nalishlarini tahlil qilish.

**Dissertatsiyaning ob'ekti va predmeti.** Dissertatsiya ishining ob'ekti bo'lib Janubiy Koreya bank tizimi xizmat qilgan. Koreya bank tizimining rivojlanish xususiyatlari ishning predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi,** unda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida bank tizimini tartibga solish bo'yicha Koreya tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari ochib berilganligi bilan ifodalanadi.

**Ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining materiallari mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishida hamda jahon iqtisodi, bank ishi, halqaro iqtisodiy munosabatlar bo'yicha o'quv qo'llanmalar va kurs ishi bo'yicha ishlatilishga tavsiya etilishi mumkin.

Ishning tuzilmasi mazkur tadqiqotning maqsadi, vazifa va mantig'i bilan shartlangan, u o'z ichiga kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini qamrab oladi.

## **I-BOB. BANK-MOLIYA FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Banklar va bank tizimining yuzaga kelishi va rivojlanishi**

Bank tizimi bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismidir. Tovar pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyatlar ochib beradi.

Dastlabki banklar qachon va qanday paydo bo'lganligi to'g'risida aniq manbalar mavjud emas. Gap shundaki, hozirgi davrda banklar faoliyati xususiyatidan kelib chiqib turlicha bo'lgan operatsiyalarni bajaruvchi universal moliyaviy tashkilotlarni o'zida namoyon qiladi. Masalan, birinchi darajali toifaga kiruvchi chet el banklari o'z mijozlariga 300 dan ortiq turli xil xizmatlarni ko'rsatadilar. Bu operatsiyalarning va xizmatlarning barchasi bir vaqt va bir joyda paydo bo'lmaganligi sababli ham bank ishining "boshlang'ich" nuqtasini aniqlash aniq tadqiqodlar olib borishni va ular asosida ma'lum bir fikrlarni mujassamlashtirishni talab qiladi.

Banklar faoliyatining eng "qadimgi" operatsiyalari bo'lib, pullarni saqlab berish bo'yicha operatsiyalar hisoblanadi. (1.1-rasm.) Ma'lumki, eng qadimgi davlatlarda ham omonatlarni qabul qilish operatsiyalari mavjud bo'lgan. Ilk bor bunday ish bilan ma'lum obro'ga va ishonchga ega bo'lgan puldor shaxslar, Yevropa mamlakatlarida cherkov muassasalari shug'ullanganlar. Masalan, tarixan mashhur grek ehromlari (masalan, Delfiya, Efes ehromlari) bir paytning o'zida o'ziga xos bank muassasalari bo'lib xizmat qilishgan. Yillar o'tishi bilan o'sha qadimgi davrlardan boshlab ayrim hollarda qo'yilgan pul yoki mulk bo'yicha foizlar ham hisoblangan. Banklarning kelib chiqishiga bag'ishlangan mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarning paydo bo'lishining asosiy yoki boshlang'ich zamini birinchidan, pul mablag'larini saqlab berish bo'lsa, ikkinchidan, pul mablag'larini almashtirib berishdan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Pul ayirboshlash bo'yicha ehtiyoj alohida paydo bo'lgan. Bunda Yevropani yorqin misol qilib ko'rsatish mumkin. O'rta asrlarda tangalarning yagona tizimi mavjud bo'lmagan. Savdo turli mamlakatlar, shaharlar, hatto alohida



shaxslarning tangalari orqali olib borilgan. Barcha tangalar turli vazn, shakl va nominalga ega edilar. Shuning uchun tangalar bilan shug'ullanuvchi va ayirboshlashni olib bora oladigan mutaxassislar o'z ayirboshlash stollari bilan qizg'in savdo ketayotgan joylarga joylashishgan. Shu bois, "bank" so'zi italyanча "banco" - ayirboshlovchining oldidagi stol degan ma'noni anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan. Bunga o'xshash operatsiyalar bundan ancha avvalgi davrlarda qadimgi Gresiya, Rim, Sharqda amalga oshirilar edi. Bank ishi rivojlanishini bankning alohida operatsiyalari miqyosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bank ishining tarixiy rivojlanishi quyidagicha borganini ko'rishimiz mumkin:



### 1.1- rasm. Bank ishi alohida operatsiyalarining tarixiy rivojlanishi<sup>2</sup>

Pulni saqlash va ayirboshlash bo'yicha operatsiyalar bilan shug'ullanuvchi shaxslar yig'ilgan boyliklar - pullar samarasiz, harakatsiz yotganini tushunishar va agar mavjud mablag'larning hech bo'lmaganda bir qismini bo'lsa ham vaqtinchalik foydalanishga berilsa, sezilarli foyda olish mumkinligini bilishar edi. Shunday qilib, asosida pullarni ma'lum muddatga qaytarish va foiz to'lash shartlari bilan berish yotgan ssuda (kredit) operatsiyalari paydo bo'lgan. Bunda garov sifatida uylar, kemalar, qimmatbaho buyumlar, chorva mollari, qullar qabul qilingan.

Bir bankir, aniqrog'i pulni saqlab beruvchi xizmatlaridan bir - biri bilan o'zaro xisob - kitoblar bilan bog'langan bir necha shaxslar foydalanish mumkin bo'lgani uchun, asta - sekin mijozlarga hisob - kitob xizmatini ko'rsatish operatsiyalariga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Dastavval ular quyidagicha amalga oshirilar edi. Har bir omonatchi pulni saqlab beruvchida uning ismi yozilgan jadval shaklidagi o'z hisob varaqasiga ega bo'lgan. Bu jadvalda pullarning harakati (kirim yoki chiqim) aks ettirilar edi. Butun operatsiyani pulni saqlab beruvchi - bankir

<sup>2</sup> Банковское дело: учебник/ Под ред.Г.Г.Коробовой. – М.: Экономистъ, 2009. – С. 19.

omonatchining og‘zaki yoki yozma buyrug‘i bilan amalga oshirar edi. Bunda mos o‘zgarishlar o‘zaro hisob

kitoblarda ishtirok etuvchi shaxslar jadvallariga kiritilar edi. Bu eng sodda xizmatlar naqd pulsiz hisob - kitoblarning dastlabki shakllarini tashkil qilgan.

Barcha yuqoridagi operatsiyalar dastlab alohida mavjud bo‘lgan va keyinchalik ular biz bank deb nomlashga odatlangan bir xil tashkilotlar chegaralarida birlashganlar. G‘arbiy Yevropada oddiy ayirboshlash idoralaridan bank uylariga o‘tish jarayoni 16 - 17 asrlarda ro‘y berdi.

Ko‘pchilik iqtisodchilar bank mohiyatini ssuda (kredit) operatsiyalarida ko‘rishga moyildirlar.

Pul muomalasi tadbirkorligining yuzaga kelishiga qadimgi Rim va o‘rta asr Italiyasi shaharlaridagi uyushmalar faoliyati asos bo‘lgan. Ularning davlat bilan muntazam aloqasi (uyushmalar tomonidan hisob-kitob va ssuda ta‘minoti va davlat tomonidan batafsil huquqiy tartibga solish), pul kapitalini jamg‘arishning rag‘batlantirilishi va pul tizimining mustahkamlanishi (oltin zaxirasining ortib borishni, xorijda ishlab chiqarilgan metall tangalarni muomaladan chiqarish, savdo munosabatlari uchun pul qog‘ozlari chiqarish, qaytadan zarb qilish o‘rniga milliy tangalarni ichki qayta baholash, uchinchi shaxslar hisobidan to‘lovlar), millatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish (davlatning iqtisodiy vazifalari – soliqlar va to‘lovlarni yig‘ish) – bularning barchasi pul muomalasi tadbirkorligining yuzaga kelish yo‘nalishlaridir.

Qadimgi Rimda taxminan 50 ta nisbatan yirik uyushmalar hamda o‘zaro raqobatbardosh maydaroq 800 ta sudxo‘rlik va sarroflik idoralari faoliyat ko‘rsatgan.<sup>3</sup> Bunda ular o‘rtasida pul mablag‘larini jalb etish uchungina emas, balki ularni joylashtirish (savdogar hamkorlar bilan, davlat muassasalari bilan shartnomalar tuzish) uchun ham raqobat bo‘lgan.

Aslida kredit operatsiyalari sudxo‘rlik xususiyatiga ega bo‘lgani, sababli ssuda asosida kreditor tomonidan o‘rnatilgan shart bo‘yicha ikki tomonning

---

<sup>3</sup> Пул, кредит, банклар: Дарслик, О.Лаврушин тахрири остида -2-нашр, тўлд. ва қўш.-М.:Молия ва статистика, 2005, 464-б.

shaxsiy kelishuvi yotgan. Sudxo‘r uchun kredit operatsiyalari faqat boyluk to‘plash vositasi bo‘lib xizmat qilgan va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rag‘bat bo‘lmagan.

Rim imperiyasining ag‘darilishi bilan pul xo‘jaligi ham inqirozga yuz tutdi, bu holat milodiy IX asrda Shimoliy Italiyadagi yirik shaharlar (Genuya, Venesiya, Florensiya, Milan, Siena va b.)ning savdo va sanoatining rivojlanishi bilan bartaraf etildi. Shahar ma’murlarining alohida imtiyozlari tufayli dastlabki italiya uyushmalari ajralib chiqa oldilar va mazkur shaharlar iqtisodiyotida yetakchilikni egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Sudxo‘rlardan savdo va pul kapitallarini taqsimlashni ta’minlab beruvchi funksiyalarning tortib olinishi, uyushmalarga tadbirkorlik asosidagi tashkilot sifatida o‘z mavqe’ini mustahkamlab olishga imkon berdi.

1171 yilda bir necha o‘n yilliklar davomida faoliyat ko‘rsatib kelgan yopiq hissadorlik shirkatlari depozit (jamg‘arma) bank qiyofasiga ega bo‘ldi.<sup>4</sup> Keyingi tashkil etilayotgan shirkatlar (banklar) xususiy bo‘lib va shaharlik boylarining mulki bo‘lsa-da, ularga shahar ma’murlari tomonidan jamoat kassasi sifatida qaralgan. Ularning shakllanishi uzoq davom etgan. Bu jarayonni kuzatgan holda, shahar ma’murlari bu turdagi faoliyatni tartibga keltirish va reglamentga solish zarur ekanligini tushunib yetdilar.

1270 yildan boshlab shirkatlar shahar vakillari – savdo konsuliga vaqt o‘tishi bilan muntazam narxi oshib borgan garov to‘lash majburiyati joriy etilgan.<sup>5</sup> Shirkatlar faoliyati mukammal reglament ostida bo‘lgan (muayyan operatsiyalarni amalga oshirish man etilgan, pul mablag‘larining muayyan miqdori cheklab qo‘yilgan, shirkatlar ustidan nazorat o‘rnatuvchi alohida muassasa tashkil etilgan, shirkat a’zolarini senatda saylash va sinovdan o‘tkazish, pul operatsiyalarini amalga oshirishda shahar hokimyatidan vakillarning ishtiroki, shirkatlar faoliyati bilan sarroflik ishlarini qo‘shish man etilgan, xususiy shaxslarga ma’lum muddatga

---

<sup>4</sup> Пул, кредит, банклар: Дарслик, О.Лаврушин тахрири остида -2-нашр, тўлд. ва қўш.-М.:Молия ва статистика, 2005, 335-б.

<sup>5</sup> Ўша ердан, 335-б.

boshqa shirkatlar ochish man etilgan, shaharda ularning soni tartibga solib turilgan).

Yevropa banklarni yuzaga kelishi, qaror topayotgan davlatlarning iqtisodiy faoliyatlari uchun xos bo'lgan barqaror pul operatsiyalari keng yoyilgan markazga aylandi. Yevropa shaharlari va davlatlari tomonidan pul muomalasining monetizatsiyalash darajasi cheklangan miqdordagi pulga ega bo'lishga sabab bo'lgan. Pul xo'jaligi bir qator sabablarga ko'ra, sust bo'lgan, buning sabablari: muomaladagi metall pullarning tez yedirilib ketishi; davlat tasarrufidagi kerakli metallarning cheklangan miqdori; pul muomalasini ushlab turish uchun zarbxonalar sonining o'sishi; tangalarni zarb etishni ta'minlab beruvchi texnik vositalarning yetishmasligi va h.k.dan iborat. Shu sababli, Yevropa davlatlarida ta'sis etilayotgan uyushmalar yoki shirkatlar pul muomalasini barqarorlashtirish, alohida mamlakatlarda yuzaga kelayotgan pul tizimlarini mustahkamlashning haqiqiy vositasiga aylanib bordi.

Bu jarayon Gollandiya markazi – Amsterdamda, ayniqsa, yaqqol kuzatildi. Shaharda faoliyat ko'rsatayotgan mustaqil kassirlar instituti va shahar ma'murlari tomonidan bir necha asrlar davomida ta'sis etilgan ayirboshlash bankining raqobat kurashi natijasida Gollandiya pul tizimini mustahkamlab olishga erishildi (XVIII asr oxiridan boshlab deyarli bir asrdan ziyod vaqt davomida uch guldenlik tanga asosiy standart tanga bo'lib kelgan).<sup>6</sup>

O'rta asrlar Yevropasidagi barcha davlatlar va shaharlar banklarni pul muomalasini mustahkamlovchi institut sifatida ko'rmadilar. Germaniyada Italiya savdo markazlari negizida nemis savdo uylari rivojlana boshladi. Pul operatsiyalarini bajarishni amalga oshirish uchun muayyan namunadagi guvohnoma olishning o'zi yetarli bo'lgan. Asosiy operatsiyalar yirik omonatchilar (baron, knyaz va b.) tomonidan pullarni jalb qilish va ularni ehtiyojmandlarga garov ostida (sudxo'rlikni cheklash yoki man etish to'g'risidagi qonunlarga qaramay) ssuda sifatida taqdim etishdan iborat bo'lgan. Germaniyadagi ba'zi

---

<sup>6</sup> Пул, кредит, банклар: Дарслик, О.Лаврушин тахрири остида.–2-нашр, қайта ишл. ва тўлд.–М.:Молия ва статистика, 2005, 338-б.

knyazliklar va qirolliklar 1618–1648 yillardagi urushdan so‘ng gugenotlar, fransuz savdogarlar ahli, veksel va naqd pulsiz pul muomalasi mutaxassislar tomonidan taklif etilgan. Ular pul operatsiyalarini yuritish bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lganlar, doimiy ravishda pul kapitalini harakatlantirib turganlar, bank kitoblari yuritganlar. Ularning ko‘magida “Gemayn-Kredit” birinchi hunarmandchilik banki yaratilgan.

Fransiyada XII–XVI asrlarda katta bo‘lmagan garov ostida ssuda berish maqsadlarida shirkatlar yaratishga bir necha bor urinib ko‘rilgan. Rim papasi Lev X ning yorlig‘i (fatvosi)da olinadigan foizlarni shirkatlarni boshqarish xarajatlaridan oshmaydigan darajada kamaytirish ko‘zda tutilgan. 1627 y.da ssuda uchun yuqori foiz oladigan lombardlar o‘rniga ularning huquqlari va ustuvorliklari tasdiqlandi.<sup>7</sup>

1673 y.dan boshlab garov ostida ssuda berish qat’iy belgilanadigan bo‘ldi, banklarning har yerda tarqalishi mamlakat poytaxti – Parijgacha yetib bordi.<sup>8</sup> Mayda omonatchilarning pul mablag‘lariga mo‘ljallangan banklarning keng tarqalishi bankirlar uylarining qaror topishi bilan kengayib bordi.

Rossiyada XIII asr boshlarida nemis sharharlari bilan faol savdo olib borish natijasida pul operatsiyalarining asosiy markazlari yuzaga kela boshladi: Novgorod va Pskov monastir va cherkovlar savdo uylarini ishga tushirish joyi bo‘lib xizmat qildi. Dastlab pullar (tovar va metall) ssuda berishda garovga qo‘yilgan mulk bilan rasmiylashtirilmas edi. Asta-sekin garov munosabatlari keng yoyila boshladi. Rossiya Vizantiya davlati qonunlarining asosiy nizomlarini o‘zlashtirib oldi, ularning pul operatsiyalarini tashkil etish (bu masalalarda davlatning monopoliyani ximoya qilishga intilishi, operatsiyalar va yo‘l qo‘yiladigan foizlar miqdorini qat’iy belgilash) usullarini qabul qildi. Bunday soha bilan shug‘ullanish huquqi tovon tariqasida berilgan. Pskov ssuda huquqi kredit bitimlarini maxsus “doska”larda rasmiylashtirgan. Pul oborotiga qarz majburiyatlari – oddiy veksellar kiritilgan. Asosiy huquqiy hujjat – Rossiyada hududida kreditorning mulkiy manfaatlarini

---

<sup>7</sup> Пул, кредит, банклар: Дарслик, О.Лаврушин тахрири остида.–2-нашр, қайта ишл. ва тўлд.–М.:Молия ва статистика, 2005, 340-б.

<sup>8</sup> Ўша ердан, 3341-б

ta'minlash tartibi va uni himoya qilish, qarz undirish tartibi, nochorlik turlari qat'iy belgilab berilgan.

XV–XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar davrida jahon tovar bozorining shakllanishi, ba'zi Yevropa davlatlarining milliy manfaatdorligi va iqtisodiy da'vogarliklarining kuchayishi, xo'jalik imkoniyatlari sifat darajasining oshishi, moliyaviy aloqalarning baynalminallashuvi, tarbirkorlik faoliyati qaltisligining keskinlashuvi tufayli bank ishining jahon xo'jalik munosabatlarning umumiy globallashuv jarayoni bilan birlashib ketishi muqarrar edi. Alohida banklarning (ayniqsa, Italiya va Gollandiya) lokal (mahalliy), cheklangan harakatlari banklararo raqobatni keskinlashtirib yubordi, pul operatsiyalarini o'tkazishda universallashuv va ayni paytda – ixtisoslashuvni kengaytirishga turtki bo'ldi. XVI asrda Amerikadan Yevropaga juda katta miqdorlarda kumush va oltin keltirilishi bu banklarning xo'jalikni pul mablag'lari bilan ta'minlashdagi monopoliyasini buzib yubordi. U bank faoliyatining ko'lamlarini va sifat jihatdan o'zgartirib yubordi. Banklarning rivojlanishiga metall pul muomalasini bank tadbirkorligi jarayoniga qo'yadigan cheklovlari yo'qoltirishiga erishish mumkin edi:

- pul muomalasi davomida siyqalanib ketgan o'z pu zahirasining o'rnini to'ldirish uchun qimmatbaho metallarning muayyan miqdorining nomuntazam keltirilishi;
- pul sifatida oltinning haddan tashqari noelastikligi (oltin qazib chiqarish xarajatlarining kattaligi va tabiiy cheklanganligi);
- oltinning o'z hajmi hisobidan foizlar keltirishga qodir emasligiga bog'liq holda, to'la qimmatga ega pullarning kredit munosabatlari bo'yicha xizmat ko'rsatishga yaroqliligining yetarli darajada emasligi;
- individual (xususiy) pul kapitallari oborot tezligi oshishini cheklash, milliy boylikning kamayishi (oltin qazib olish na ishlab chiqarishni, na shaxsiy iste'molni oshira olmadi).

Bu muammolarni hal etish metall pullarni qog'oz pullar bilan almashtirilishiga olib keldi. Lekin qog'oz pullarga xos bo'lgan xususiyat ularning tez qadrsizlanishi hamda pul bozorini tartibga solishning qiyinlashuviga olib keldi. Oltin monopoliyasiga bog'liq bo'lmagan, milliy kapital rivojlanish darajasi bilan ifodalanuvchi pul munosabatlarini amalga oshiruvchi vositalar zarur bo'ldi. Bunday talablarga kredit pullar javob berardi, ular qog'oz pullar singari oltin pullarni faqat muomala davrida emas, balki to'liq almashtira oldilar. Kredit pullarining paydo bo'lishi metall pul miqdoriga bog'liqlikni chekladi. Banklar esa ushbu pullarning aylanmasini tartibga soluvchi institutlarga aylandi.

XVII-XX asrlar davomida jahonning yirik mamlakatlari – Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Rossiya iqtisodiy qudratining o'sishi banklarda pul kapitali jamlanishiga sabab bo'ldi. Bu davrda Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya kabi kredit munosabatlarida belgilovchi mamlakatlarning mavqei mustahkamlandi. XX asrda AQSh va Yaponiyaning iqtisodiy salohiyati shakllandi. Natijada tovar-pul munosabatlar tarkibining o'zgarishi kredit munosabatlari o'zgarishiga, ularning konsentratsiyasi, markazlashuvi va monopolizatsiyasi, davlat tomonidan boshqarilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Banklar kredit operatsiyalari kengayib bordi, ularni amalga oshirish uchun banklar o'z pul asoslarini ham kengaytirib qolmay, milliy va jahon moliya bozori shakllanishini ham jadallashtirdilar.

## **1.2. Zamonaviy bank tizimining tuzilishi**

Zamonaviy kredit-bank tizimlari murakkab, ko'p bo'g'inli tuzilmaga ega. Agar sinflarga ajratishda asos qilib, mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar tavsifini oladigan bo'lsak, zamonaviy kredit tizimining uchta muhim elementini ajratish mumkin: markaziy bank; tijorat banklari; ixtisoslashgan (sug'urta, ipoteka, jamg'arma) moliyaviy muassasalar. Nemis prof. X.E. Byushgen tahriri ostidagi eng yaxshi darsliklardan biri bo'lgan "Bank ishi" kitobida bank tizimi universal va

ixtisoslashgan banklar, emission bankdan iborat, deb ta'kidlanadi. Markaziy bank yetakchi – banklarning banki rolini bajaradi.<sup>9</sup>

Shu bilan birga “tizim” va “bank tizimi” atamasi banklar tarkibini belgilash bilan cheklanib qolmaydi. “Bank tizimi” tushunchasi mazmuniga ko‘ra ancha keng bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- elementlar majmuini;
- muayyan bir yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlarning yetarliligini;
- elementlarning o‘zaro munosabatlari.

Bank tizimi qanday xususiyatlarga va belgilarga ega?

1. Bank tizimi, birinchi navbatda, elementlarning tasodifiy majmui, kutilmagan turli-tumanligi emas. Uning tarkibiga bozorda faoliyat ko‘rsatsa-da, boshqa maqsadlarga bo‘ysungan sub’ektlarni mexanik tarzda kiritib bo‘lmaydi.

2. Bank tizimi juda o‘ziga xos. Bank tizimining o‘ziga xosligi uning tarkibiy elementlari va ular orasida yuzaga keladigan munosabatlar bilan belgilanadi.

Bank tizimining mohiyati nafaqat uning xususiy, tarkibiy elementlarining mohiyatiga, balki ularning o‘zaro aloqalariga ham bog‘liq. Bank tizimining bir nechta tiplari ma’lum:

- taqsimlovchi markazlashtirilgan bank tizimi;
- bozor bank tizimi;
- o‘tish davri tizimi.

Taqsimlovchi tizimga qarama-qarshi ravishda bozor tipidagi bank tizimi banklar ustidan davlat monopoliyasining yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Mulkchilikning turli shakllaridagi takror ishlab chiqaruvchi har qanday sub’ekt (nafaqat davlat tasarrufidagi) bank tashkil etishi mumkin. Bozor xo‘jaligida markazlashmagan bozor tizimiga ega juda ko‘p banklar faoliyat ko‘rsatadi. Emissiya va kredit funksiyalari ular o‘rtasida o‘zaro taqsimlab olingan. Emissiya funksiyasini markaziy bank amalga oshiradi, korxonalar va aholini kreditlar bilan

---

<sup>9</sup> Пул, кредит, банклар: Дарслик, О.Лаврушин тахрири остида.–2-нашр, қайта ишл. ва тўлд.–М.:Молия ва статистика, 2005, 285-б.



ta'minlash vazifasini turli – tijorat, investisiya, ipoteka, jamg'arma va boshqa banklar bajaradi. Tijorat banklari davlat majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi, davlat ham, o'z navbatida, tijorat banklari uchun mas'ul emas. Tijorat banklari davlat ma'muriy organiga emas, balki o'z Kengashlari, aksionerlarining qarorlariga itoat etadi.

3. Bank tizimi turg'un holatda bo'lmaydi, aksincha, u doim harakatda, o'zgarishda. Birinchidan, bir butunlik sifatida bank tizimi doim harakatda, unga yangi tarkiblar qo'shib turadi, shuningdek, u mukammalashib boradi. Ikkinchidan, bank tizimi ichida muntazam ravishda yangi aloqalar yuzaga keladi. Munosabatlar markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasida ham, shuningdek, o'zaro ham shakllanib boradi. Banklar banklararo kredit bozorlarida qatnashadilar, savdoga "uzun" va "qisqa" pullarni chiqaradilar, bir-birlaridan pul resurslarini sotib oladilar. Banklar bir-biriga o'zgacha, masalan, korxonalarni moliyalashtirish bo'yicha qo'shma loyihalarda ishtirok etish, birlashma va uyushmalar tashkil etish kabi xizmatlar ham ko'rsatishi mumkin.

4. Bank tizimi yopiq turdagi tizim hisoblanadi. Tom ma'noda uni yopiq deb bo'lmaydi, sababi u tashqi muhit bilan, boshqa tizimlar bilan aloqa qiladi. Shunday bo'lsa-da, u "yopiq", sababi banklar o'rtasidagi axborot almashinuvi va markaziy banklar tomonidan maxsus statistik to'plamlarning, axborot ma'lumotnomalarining, byulletenlar nashr etilishiga qaramay, bank "siri" mavjud.

5. Bank tizimi – "o'z-o'zidan shakllanuvchi", sababi iqtisodiy ahvolning, siyosiy vaziyatning o'zgarishi bank siyosatining "avtomatik" o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiy inqirozlar va siyosiy beqarorlik davrida bank tizimi ishlab chiqarishga ajratadigan uzoq muddatli investisiyalarni qisqartiradi, kreditlash muddatlarini kamaytiradi, daromadlarini asosiy emas, balki ko'proq qo'shimcha faoliyat turlari hisobidan oshiradi. Aksincha, iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, muvofiq ravishda, xavflar kamaygan sharoitlarda esa, banklar korxonalarining asosiy ishlab chiqarish faoliyatiga xizmat ko'rsatish bo'yicha ham,

xo'jaliklarni uzoq muddatli kreditlash bo'yicha ham o'z faoliyatini faollashtiradi, daromadlarining asosiy qismini an'anaviy foiz kirimlari hisobidan oshiradi.

6. Bank tizimiga boshqaruv tizimi sifatida qaraladi. Markaziy Bank, turli shakllarda mustaqil pul-kredit siyosatini o'tkazgan holda, faqat parlament yoki ijro etuvchi hokimiyatga hisobotdor. Tijorat banklari yuridik shaxs sifatida umumiy va maxsus bank qonunlari asosida faoliyat ko'rsatadi, ularning faoliyati kredit institutlari ustidan nazorat olib boruvchi Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy-me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi.

Tarix shuni ko'rsatmoqdaki, bank tizimining har qanday tuzilmasi ham muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'lar ekan. Amalda markaziy bank boshchilik qilgan bank tizimlari tuzilmasining turli modellaridan foydalaniladi. Shunday bo'lsa-da, bank tizimlarining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tizimlarning milliy an'analar, rivojlanishning tarixiy tajribasiga asoslangan noyobligi. Turli mamlakatlarning bank tizimlari, ularning tashkiliy tuzilmasi juda ko'p omillarga (ob'ektiv va sub'ektiv) bog'liq, ularning tarkibiga tarixiy va milliy an'analar bilan bir qatorda, mamlakatdagi tovar-pul munosabatlarining rivojlanish darajasi, iqtisodiyotning umumiy o'sish darajasi, pul muomalalarini (bevosita va bilvosita) tartibga solish usullari va b.ni kiritish mumkin. Masalan, Shimoliy Amerika materigidagi dunyoning yuqori darajada rivojlangan ikki mamlakati – AQSh va Kanada, bir-biri bilan bevosita yonma-yon joylashgan bo'lsa-da, o'z bank tizimlarini tashkil etishda mutlaqo qarama-qarshi yondoshuvlarga egadir.

- bank tizimlarining asosiy elementi sifatida bankni izohlashdagi tafovutlar. Jahon bank amaliyotida banklar va nobank kredit uyushmalari hamda uyushmalarning o'rtasidagi o'zaro raqobat ular faoliyatining muayyan darajada universallashtiruviga olib keladi. So'nggi yillarda banklarning va boshqa (nobank) kredit tashkilotlarining an'anaviy roli tez o'zgarmoqda. Masalan, G'arbda banklar ipoteka operatsiyalarini amalga oshiradi, garovdan foydalanadi; qurilish jamiyatlari mijozlariga bank xizmatlari taqdim etadi; yirik chakana savdo do'konlari kredit va

diskont kartochokalari chiqaradi; banklar birja va maklerlik firmalarini sotib oladi va h.k;

- banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni. Bank tizimlari tuzilmasining tarixiy, milliy xususiyatlarini ba'zi mamlakatlarda (Germaniya, Fransiya, Avstriya, Vengriya, Italiya va b. Yevropa mamlakatlarida)gi tijorat banklari bilan investisiya banklari o'rtasida keskin farq mavjud emasligida ham ko'rish mumkin. Bu investisiya banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida egallagan o'rni bilan belgilalanadi.

- tijorat banklar faoliyati ustidan nazorat tizimi. Jahon bank amaliyotida bank nazoratini tashkil etishga turlicha yondoshuvlar mavjud. Nazorat tuzilmalarini tashkil etish usullari, bu tuzilmalarda markaziy bankning egallagan o'rni va roli bo'yicha farq qiluvchi mamlakatlarning uchta guruhini ajratish mumkin:

- nazorat markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar – Avstraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya;


- nazorat markaziy bank emas, balki boshqa organlar tomonidan olib boriladigan mamlakatlar – Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvesiya, Avstriya, Finlyandiya, Norvegiya;

- nazorat markaziy bank tomonidan boshqa organlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan mamlakatlar – Shveysariya (Markaziy Bank bilan Federal bank komissiyasi va Shveysariya banklar uyushmasi tomonidan), Fransiya (Fransiya banki bilan Bank komissiyasi birgalikda), Germaniya (Bundesbank va Federal Kredit nazorati xizmati birgalikda), AQSh Federal zaxira tizimi (Moliya vazirligi, Depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi).

- bank tizimlari darajalari. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan banklar majmui bir darajali yoki ikki darajali tuzilmaga ega bo'lishi mumkin. Bank tizimi tuzilmasining bir darajali varianti quyidagi holatlarda bo'lishi mumkin: mamlakatda markaziy bank mavjud emas; mamlakatda faqat markaziy bank

mavjud; boshqa banklar bilan raqobatlashgan holda barcha bank operatsiyalarini markaziy bank bajaradi.


Hozirgi vaqtda deyarli barcha bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda ikki darajali bank tizimlari yaratilgan va faol rivojlanmoqda, ularning birinchi darajasida emission, qonun yaratuvchi, nazorat va boshqa faoliyat turlarini amalga oshiruvchi mamlakatning markaziy banki faoliyat ko'rsatmoqda; ikkinchi darajasida esa – tijorat banklari.



### 1.2- rasm. Ikki pog'onali bank tizimi tuzilishi

Biroq ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda uch darajali (va undan ziyod) tizimlar to'g'risida qaydlar ham uchrab turadi. Bunday yondoshuv bank (kredit) tizimlariga nobank kredit institutlarini (masalan, sug'urta kompaniyalari, investisiya fondlari, moliya kompaniyalari va b.) kiritishni nazarda tutadi, bu esa bank tizimi elementlari tarkibidagi tafovutlar to'g'risida so'z yuritishga imkon beradi. Faqat banklar bank tizimlari elementi hisoblanadi, biroq nobank kredit uyushmalari tasarrufidagi yirik moliyaviy resurslar nafaqat banklar, balki kredit tizimi doirasidagi boshqa moliyaviy-kredit tashkilotlarining faoliyatini ko'rib chiqishda ularning ucheti va tahlili zarurligini shart deb biladi. Bunday holatni Yaponiya,

Shveysariya, Buyuk Britaniya va G'arbnig boshqa rivojlangan mamlakatlari tizimlarida ko'gish mumkin. Bank tizimining rivojlanishiga bir qator makroiqtisodiy va siyosiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida tovar-pul munosabatlarining yetuklik darajasi; ijtimoiy va iqtisodiy tartib, uning aniq maqsadli va ijtimoiy yo'nalishi; qonuniy asos va hujjatlar; bankning iqtisodiyotda tutgan o'rni va mohiyati to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni alohida ko'rsatish mumkin.



**1.3 – rasm. Zamonaviy bozor tizimda tijorat banklarining o‘rni**

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Bugungi kunda bank tizimi – bozor iqtisodiyotining eng muhim tuzilmalaridan biri. Banklar va tovar ishlab chiqarish hamda muomala sohasi tarixan birgalikda rivojlanib kelmoqda va chambarchas bog‘lanib ketgan. Bunda banklar kapitalarni qayta taqsimlashda vositachi sifatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Tijorat banklari tadbirkorlik korxonalarining alohida toifasi sifatida ko‘rilib, moliyaviy vositachilar degan nomga sazovor bo‘lgan. Ular xo‘jalik faoliyati jarayonidan bo‘shagan kapitalar, aholi omonatlari va boshqa pul mablag‘larini jalb etadilar va vaqtinchalik foydalanish uchun ularni qo‘shimcha kapital talab etadigan boshqa iqtisodiy

agentlarga beradilar. Banklar pul bozorida tovarga aylanadigan yangi talab va majburiyatlarni yuzaga keltiradi. Mijozdan omonatlar qabul qilgan holda, tijorat banki yangi majburiyat – depozitni, ssuda berib – qarzdor uchun yangi talabni yaratadi. Ushbu yangi majburiyatlarni yaratish jarayoni moliyaviy vositachilikning mohiyatini tashkil etadi. Bunday transformatsiya omonatchi bilan qarzdor o’rtasidagi bevosita aloqaning taklif etiladigan va talab etiladigan summa, ularning muddatlari, daromadliligi va h.k.ning bir-biriga muvofiq kelmasligi sababli yuzaga keladigan ixtiloflarning oldini oladi.

### 1.1-jadval

#### Bank turlarining tasniflanishi

<b>Tasnif kriteriyalari</b>	<b>Bank turlari</b>
Mulkchilik turlari bo’yicha	Davlat, aktsiyadorlik, kooperativ, xususiy, qushma, chet el
Tashkil etishning huquqiy shakllari bo’yicha	Ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati, yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati, ma’suliyati cheklangan jamiyat
Funksional vazifalari	Emission, depozit, tijorat
Operatsiyalarni olib borish xususiyati bo’yicha	Universal, ixtisoslashgan
Tarmoqlarga xizmat ko’rsatish bo’yicha	Ko’p tarmoqli, monotarmoqli
Filiallar hisobi bo’yicha	Filialsiz, ko’p filialli
Faoliyat masshtablari bo’yicha	Katta, o’rta, kichik
Maxsus vazifalari bo’yicha	Rivojlantirish, munitsipal, ipoteka
O’zaro tobelik darajasi bo’yicha	Bosh bank (materinskiy), sho’’ba banklari (docherniy), asossatsiyalashgan banklar.
Alohida vakolatlarni olib	Agent banklar, vakil qilib yuborilgan banklar

borish darajasi bo'yicha	
Faoliyat samaradorligi bo'yicha	Moliyaviy qiyinchilik belgilari yo'q banklar, faoliyatida alohida kamchiliklarga ega banklar, jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan banklar, moliyaviy krizis xolatida turgan banklar.

Manba: Muallif tomonidan tuzildi.

Moliyaviy vositachilikning zamonaviy iqtisodiyotdagi ko'lamlari juda beqiyos. Buni pul oqimlarining statistikasi ham ko'rsatmoqda. Hisoblarning bu tizimida xo'jaliklar bir qator sektorlarga ajratiladi: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik korxonalari, davlat muassasalari, moliyaviy institutlar, xorijiy sektor. Rivojlangan mamlakatlarda uy xo'jaliklari sektori, odatda, boshqa sektorlar uchun kapital yetkazib beruvchi hisoblanadi. Normal iqtisodiy sharoitlarida tadbirkorlik firmalari sektori pul mablag'lari tanqisligini boshdan kechiradi. Davlat sektori, odatda, yuqori chiqimli, shu sababli davlat ssuda kapitallari bozorida qarzdor sifatida chiqadi.

Muomala sohasidagi bank faoliyati 20-y.larning boshlaridayoq u haqda birja agenti sifatidagi tasavvurni yuzaga keltirgan. Bunga banklarning birjada muntazam ishtirok etishi asosiy sabab bo'lgan. Ular mustaqil ravishda birja operatsiyalarini uyushtirishlari, qimmatli qog'ozlar savdosi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Biroq bu narsa tarixiy jihatdan ham, mantiqiy jihatdan ham bankni birja tashkilotiga aylantirib qo'ymaydi. Xususiy banklar (bankirlar uylari) birjalar, qimmatli qog'ozlar savdosi yuzaga kelishidan ancha avvalroq vujudga kelgan. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar savdosi bank operatsiyalarining bir qismi sanalsa-da, eng muhimi emasligi ham katta ahamiyatga ega. Aynan mana shuning uchun, qimmatli qog'ozlar savdosi yetarli darajada o'ziga xos bo'lib, tom ma'noda bank ishidan farq qiladi, u birjaga o'zining maxsus apparati va vazifalariga ega bo'lgan bozorning mustaqil elementi sifatida ajralib chiqishiga imkon yaratdi.

O‘z navbatida bank ham, asta-sekin kredit markaziga aylanib bordi, bu esa uni kredit tashkiloti sifatida tavsiflash uchun mezon yaratdi. Biroq bu bankni kredit bilan aralashtirib yuborish uchun asos bo‘lolmaydi. Bank va kredit – bu bir xil tushuncha emas.

Kredit – bu qarz qiymatining qaytarilish harakatlari yuzasidan kreditor bilan qarzdor o‘rtasidagi munosabatlar. Kredit munosabatlarida taraflardan biri qarz beruvchi (kreditor) va ikkinchisi esa qarz oluvchidir. Alohida olingan har bir kredit bitimida, xuddi muayyan vaqtda suratga olib qo‘yilgandek, doim ikkita tomon bo‘ladi, kredit ham ular o‘rtasidagi alohida o‘ziga xos munosabatni aks ettiradi. Kreditdan farqli ravishda, bank – garchi u kreditor sifatida ham, qarzdor sifatida ham teng mavqelarda ishtirok eta olsa-da bu munosabatning ikki tomonidan biridadir. Biroq, har biri alohida olingan bitimda bir vaqtning o‘zida yo kreditor sifatida, yoki qarzdor sifatida qatnashishi mumkin. Shunday ekan, bank – aynan munosabat emas, balki kredit bitimidagi qarshi tomonlarning bittasini qabul qiluvchi sub’ektlardan biri ekan. Bank bilan kredit o‘rtasidagi yana bir taffovut shundaki, kredit – pul sifatidagi ham, tovar shaklidagi ham munosabat hisoblanadi. Bankda esa faqat pul shaklidagi oqimlar to‘planadi va o‘tadi. Agar bank bilan kredit solishtiriladigan bo‘lsa, ularning tarixiy ildizlariga e‘tibor qaratish zarur. Bank pullar yaratilgandan so‘ng yuzaga kelgan bo‘lsa, kredit esa pullarning yaratilishiga qadar mavjud bo‘lgan. Bank – kreditning rivojlanishi natijasidir, o‘z navbatida kredit bankning poydevori hisoblanadi.

### **1.3. Xalqaro bank tizimi shakllanishi va uni tartibga solish xususiyatlari**

Jahon xo‘jaligida alohida mamlakatlardagi qayta ishlash jarayonida shakllanuvchi pul kapitali doimo harakatda bo‘ladi. Xalqaro moliyaviy oqimlar tovar, xizmatlar va kapital harakatini ta‘minlaydi. Bozor munosabatlarining o‘ziga xos shakli bo‘lib jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari xizmat qilib, ular takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz va samarali davom etishini ta‘minlab beradi. Xalqaro moliyaviy oqimlar banklar, ixtisoslashgan moliya-kredit institutlari va fond birjalari orqali yuz beradi.



Xalqaro valyuta, kredit va qimmatli qog'ozlar bozori quyidagi xususiyatlarga ega:

- ko'lamining juda kattaligi;
- geografik chegaralarning mavjud emasligi;
- opresiyalarning sutka davomida to'xtamasligi;
- yetakchi valyutalardan foydalanish;
- bitimlar qatnashuvchilari birinchi darajadagi, yuqori reytinglarga ega bo'lgan banklar va moliya-kredit institutlari ekanligi;
- bu bozorlarda qatnashish huquqiga yuqori darajadagi qarz beruvchilarning ega bo'lishi;
- maxsus xalqaro foiz stavkalarining mavjudligi (masalan, LIBOR)<sup>10</sup>;
- yuqori darajada standartlashuv va elektron operatsiyalarini amalga oshirilishi;
- bozor segmentlari va bitimlarni amalga oshirish instrumentlarining yuqori darajadagi diversifikatsiyasi.

Hozirda yuqori darajadagi raqobat kurashi natijasida yetakchi milliy bozorlar asosida quyidagi o'n uchta yirik moliyaviy markazlar tashkil topgan - Nyu-York, London, Tokio, Parij, Syurix, Lyuksemburg, Frankfurt-Mayn, Singapur, Bahreyn va h.k. Bular yirik xalqaro valyuta, moliya-kredit, fond operatsiyalar, oltin savdosini amalga oshiruvchi banklar hamda moliyaviy institutlar jamlangan markazdardir.

---

<sup>10</sup> Либор (инглизча ЛИБОР-Лондон Интербанк офферед Рате) (Лондон банклари томонидан евровалюта бозорида биринчи класс банкларига ссуда берилаётганида оладиган фоизнинг ўртача ставкаси. Либор валюта турига ва ссуда берилиши муддатига кўра (1, 3, 6, 12 ой) табақалаштирилган бўлади. Либорнинг расмий кўрсаткичи қайд этилмайди, уни евровалюта бозорида операцияларни амалга оширувчи ҳар бир йирик банк бозорида шакланган талаб ва таклиф асосида белгилайди ёки ўзгартиради. Евровалюта бозорининг ривожлана бориши билан либорга ўхшаш ставкалар Парижда (Пибор), Сингапурда (СИБОР), Қувайтда (КИБОР), Люксембургда (ЛЮКСИБОР) ва бошқа жойларда ҳам пайдо бўлди. «Лидз ЭНД ЛЕГЗ» (инглизча (ледс анл леадс) (молиявий ёки бошқа шаклда фойда олиш мақсадида ҳисоб китоб қилиш муддатларини бошқариш, пул тўлашни тезлаштириш ёки чўзиш. «Лидз ЭЕД ЛЕГЗ» мамлакат ичкарасида ҳам, ташқи иқтисодий муносабатларда ҳам қўлланилади.

Bugungi kunda xalqaro bank institutlari kapitallar yig‘ish va ularni taqsimlash yuzasidan bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu borada xalqaro banklarning kapitallarni ko‘paytirish va undan samarali foydalanish borasidagi quyidagi uch omil bilan belgilanishi mumkin:

1. Moliya bozorlari xalqaro ko‘lamdagi moliyaviy institutlarda tez rivojlanadi. Ulardan ko‘pchiligi (deylik, yevrovalyutadagi depozitlar bozori, chet el valyutasi bozori va davlat qimmatli qog‘ozlar bozori) Yevropa, Shimoliy Amerika va Uzoq Sharqni yagona moliyaviy tarmoq bilan bog‘laydigan bozorga aylanadi, hamda 24 soat mobaynida aylanadigan tartib asosida to‘xtovsiz shakllanib ishlaydi. Aksiyalarning fyuchers bozorlari (muddatli bitim bo‘yicha bozor) olib boriladigan operatsiyalarning jahon bo‘ylab bir zumda tarqalishi, bu bozorlarga qiziqqan kompaniyalarning qoniqish olishi natijasida boshqa moliyaviy instrumentlarning kengayishiga yo‘l ochadi. (Masalan, Tokio fond birjasining ekspansiyasi yoki London xalqaro moliyaviy fyucherslar birjasining ekspansiyasi va boshqalar).

1.2-jadval

### Dunyoning yirik moliyaviy markazlari

№	молиявий марказ	Global Financial Centres Index	№	молиявий марказ	Global Financial Centres Index
1	Лондон	790	6	Цюрих	676
2	Нью-Йорк	774	7	Токио	674
3	Гонконг	729	8	Чикаго	661
4	Сингапур	719	9	Женева	660
5	Шэньчжэнь	695	10	Шанхай	665

(Yeandle, Horne, Danev, Morris, 2009).

2. Kreditlashning va kapital yig‘ishning eski usullari yangi moliyaviy instrumentlarning yoki ichiga kirib ketadi, yoki eski usullar yangi, zamonaviy usullar bilan almashtiriladi, yoki amaliyotdan butunlay olib tashlanadi. Ulardan amaliyotda keng qo‘llaniladigani qimmatli qog‘ozlar asosidagi ssudalar va qarz fondlarini aytish mumkin. So‘nggi yillarda xalqaro banklar arzon ko‘rinishdagi depozitlarni jalb etishdagi qiyinchiliklarga tez–tez duch kelmoqdalar. Shuning uchun fondlarni qidirishda ular harakatlarini to‘xtatmasliklariga to‘g‘ri keladi. Har

qanday moliyaviy innovatsiyalarning bunday holatda harakatlanib oʻsishi, hamda minglab moliyaviy institutlarning pul resurslarining raqobatchilik jangida qatnashayotgan bir paytda xalqaro banklar ham turli koʻrinishda mablagʻlarni jalb etishga majburdir. Shuning uchun koʻpgina potentsialli qarzdor bank muassasalari yordamidan qochmagani holda oʻzlari uchun oʻz xususiy fondlarini toʻldirishdagi innavasion usullarini qoʻllaydilar (masalan, investorlarga qisqa muddatli oddiy veksellarni sotuvi).

3. Koʻpgina mamlakatlarda qimmatli qogʻozlar boʻyicha va xalqaro bank operatsiyalari boʻyicha dilerlar orasida oʻzaro toʻsiqlar olib tashlanmoqda (bu esa erkin raqobatni kuchaytiradi), bunda baʼzi yetakchi davlatlardagi baʼzi banklar boshqaruvining kuchsizlanishiga olib kelmoqda. Mazkur holatlar jamoatchilikning moliyaviy tashkilotlar oʻrtasidagi real farqni aniq anglashga yul qoʻymayapti. Bundan 20 yillar oldin oʻz operatsiyalarini baynalminallashtirgan banklar hozirda yetakchi pogʻonani deyarli egallab, ularning ortlaridan koʻp sonli mijozga ega boʻlgan qimmatli qogʻozlar operatsiyalar boʻyicha shugʻullanuvchi dilerlar ilgari xalqaro banklar bilan ishlagan boʻlsalarda, hozirda yuqorida keltirilgan baynalminal banklarga ergashmoqdalar.

Koʻpgina xalqaro banklar va boshqa moliyaviy institutlar oʻzlarining kelgusidagi muvaffaqiyatlarini jahonning barcha bozorlarida mustahkam shoxobchalarini shakllantirish orqali taklif etadigan barcha xizmatlar bilan bogʻlaydilar. Bunda ular birinchi navbatda qimmatli qogʻozlar va anderraying operatsiyalari, shuningdek investisiyani rejalashtirish va kelishi aniq boʻlgan risklarni boshqarishga eʼtiborni qaratadilar. Bu xalqaro banklarning kapitallarni yigʻish va undan samarali foydalanish orqali koʻpaytirishda alohida ahamiyatga egaki, hozirda kuchli raqobat sharoitida har qaysi bank jahonning qaysi joyida arzon kapital manbasi joylashgan boʻlsa, shu manbani qidirib topishi va koʻpaytirishi zarurdir.

Banklar arzon kapitallar manbalarini qidirishda xalqaro mijozlarga xizmat koʻrsatishi uchun katta hajmdagi turli koʻrinishdagi tashkiliy tuzilmalardan foydalanadi. Bank sektorining asosiy tashkiliy shakllariga: bank boʻlimlari,

vakolatxona, filiallar, qo'shma korxonalar, chet el kompaniyalari, Edja qonuniga mos shakllantirilgan filiallar, xalqaro bank shoxobchalari tizimi kiradi. Tashkiliy tuzilmaning bu barcha shakllari bir-biridan qanday farqlanadi?

**Vakolatxona.** Bankning xalqaro bozorlarda operatsiyalarni olib boradigan oddiy tashkiliy ko'rinishi bo'lgan vakolatxona taklif etiladigan xizmatlarning cheklangan to'plami bo'yicha ishlaydigan muassasa bo'lib, unda taklif etiladigan xizmatlar faqat bosh boshqarma orqali, shuningdek marketing xizmatlarini ko'rsatish, yangi mijozlarga o'z banklarining ba'zi faoliyatlari yuzasidan, masalan ssudalar olish va shunga o'xshash ba'zi ma'lumotlarni berish orqali o'z bankiga qiziqtirish bilan ham shug'ullanadi. Depozitlar va ssuda berish bo'yicha qarorlar, hamda shunga o'xshash boshqa xizmat ko'rinishlari bosh bank boshqarmasi vositachiligida olib boriladi yoki boshqa joyda joylashgan bankning to'liq xizmatlar to'plamini olib boruvchi bo'limi orqali amalga oshiriladi. Vakolat yoki vakillik boshqarmalari – xizmatlari qimmat bo'lmagan, moslashuvchan tashkilot bo'lib, u bank va uning doimiy mijozlari orasidagi munosabatni qo'llab-quvvatlash uchun bog'lovchi bo'g'in sifatida xizmat qiladi.

**Bank bo'limi.** Xalqaro banklarning katta qismini tashkil qiluvchi bu keng tarqalgan muassasalar mamlakat moliyaviy tashkilotlarining bir bo'lagidir. Bank bo'limi ham bankning bosh kontorasi singari xizmat assortimentlarining to'liq to'plamini mijozlarga taklif etish va bajarish kabi faoliyatini yuritadi. Chet el bo'limlari tijoriy faoliyat bilan shug'ullanuvchi iste'molchilarning to'liq talablarini hisobga olgan holda, ularga xizmat ko'rsatadi: ssudalar taklif etadi, ularning omonatini saqlash uchun qabul qiladi va boshqalar. Masalan, AQSh banklarining Londonda xizmat ko'rsatadigan bo'limlari omonat qabul qilish va ssudalar berishdagi xizmatlari bo'yicha liderlar hisoblanadi. Chet mamlakatlarda faoliyat yuritadigan bo'limlar mustaqil huquqiy birlik bo'la olmaydi, chunki u yirik bank korporatsiyasidan ajralib chiqqan bor yo'g'i bir bo'limdir. Uning bosh ofisi esa vatanida bo'ladi. Bo'limlar xizmat ko'rsatishdagi bir qancha vakolat va imkoniyatlarga ega bo'lsalarda, o'z faoliyatlari davomida boshqa mamlakat qonun-qoidalariga bo'ysunishga majburdirlar. Masalan, AQShda faoliyat yuritayotgan


chet mamlakat banklarining bo'limlari aholidan omonatlarni qabul qilish huquqiga ega, qachonki bu omonatlar mahalliy depozitlarga munosabat bo'yicha "Rezervlar haqida"gi Qonun talablariga zid kelmasligi kerak. AQSh davlatida faoliyat yuritayotgan chet mamlakat banklarining bo'limlari qabul qilgan mahalliy omonatlar uchun uncha katta miqdor bo'lmagan sug'urta yig'implari to'lovlarini Depozitlar Sug'urtasi Federal Korporatsiyasiga to'lashga majburdirlar.

**Filiallar.** Ko'pgina xalqaro banklar chet davlatlarda sho'ba firmalarini ta'sis etadilar yoki sotib oladilar. Bu huquqiy munosabatlardagi mustaqil korporatsiyalardir. Filial qanchalik xususiy kapitalga egalik qilmasin, xatto bosh bank bankrotlik holatiga kelib qolganda ham uning yopilishi zarur hisoblanmaydi. Sho'ba kompaniyalari yopilishi mumkin, qachonki uning yopilishi bosh bankka hech qanday salbiy ta'sir qilmasa (Masalan, "Sitikorp"ning Filippinda faoliyat yuritayotgan filialining yopilishi). Sho'ba kompaniyalari bo'limlari o'rnida tez-tez foydalaniladi, chunki ularning faoliyati mahalliy qoidalarga moslashuvchanlik bilan olib boriladi. Bundan tashqari sho'ba kompaniyalarining bo'lim sifatida foydalanishdan maqsad, soliq bo'yicha manfaat ko'rishdan iborat. Bundan ko'rinadiki, ko'pgina xalqaro banklar okean ortida mavjud bo'lgan firmalarni tezroq sotib olib, o'zlarining doimiy mijozlariga ega bo'lishlariga, shuningdek yangi kompaniyalar tuzib, yangi mijozlarni izlashga harakat qiladilar.

**Qo'shma korxonalar.** Banklar chet mamlakatlar bozorlariga chiqishda riskka moyillik imkoniyatlariga alohida ahamiyat beradi, ular mahalliy mijozlar bilan munosabatlar va faoliyat bo'yicha zaruriy mahalliy bilimlarni olmasdan turib kerakli ba'zi xizmat turlarini taklif etishga haqqi yo'q, shuningdek ba'zi tijoriy imkoniyatlardan foydalanib, daromad olib keluvchi operatsiyalarni amalga oshirish ham bank muassasining huquqiga kirmaydi. Bunday holatda mahalliy banklar bilan qo'shma korxonalar tuziladi.

**Xalqaro bank shahobchalari tizimi (XBSH).** Bu tizim Amerika bank boshqaruvining kashfiyoti bo'lib, birinchi marta 1981 yil Federal Rezervlar Tizimining boshqaruv kengashining ruxsati bilan amalga oshirildi, ya'ni bu tizim AQSh banklari mahalliy jamlanma hisobraqamlar bo'yicha kompyuterlashtirilgan

ma'lumotlar bazasidir. Bu mahalliy hisobraqamlar xalqaro bitimlarga xizmat qilishda foydalaniladi. Ular AQSh xududida aniq manzilga ega bo'lishi kerak, lekin ularning olib boradigan moliyaviy operatsiyalari xalqaro miqyosda bo'lishi kerak. XBSH tizimining depozitlari rezervlar to'g'risidagi tartiblarga mos kelmasligi mumkin va bu sug'urta tartiblariga ham mos kelmaydi. Bu faoliyatdan Federal hukumatning maqsadi Xalqaro bank shahobchalar tizimini tuzishga ruxsat berish yo'li bilan, chet mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan Amerika banklarining katta qismini vataniga qaytarish va bu bilan AQSh hududida qo'shimcha ish joylarini ochishdan iboratdir.



#### **1.4-rasm. Xalqaro bank faoliyati shakllari**

Milliy bank tizimining xalqaro bank tizimigi kirib borishi unga bir qancha talablarni qo'yadi. Shuningdek, banklarning xalqaro darajada faoliyat olib borishi ular faoliyatini xalqaro darajada tartibga solishni talab etadi. Banklarning xalqaro faoliyatini tartibga solishning uchta darajasini ajratish mumkin: xalqaro, milliy va mikro daraja. Milliy daraja albatta hal qiluvchi hisoblanadi, chunki har qanday xalqaro munosabatlarda qatnashish davlatlararo kelishuvlar tomonidan tartibga solinadi. Mikro darajadagi tartibga solish banklarning xalqaro strategiyasiga bog'liq ravishda o'zlari tomonidan amalga oshiriladi. Eng muhim xalqaro shartnomalarga Jahon savdo tashkiloti doirasida moliyaviy xizmatlar bo'yicha shartnoma bilan Bazel shartnomasi misol bo'ladi.

Germaniyaning eng yirik kredit institutlaridan biri — Xershtatt bankining sinishi tufayli yuz bergan bank tanazzuli munosabati bilan «o'nlarni guruhi» (G10) mamlakatlari markaziy banklari boshqaruvchilari tomonidan 1974 yilda bank operatsiyalarini nazorat qilish qoidalari va tartibini belgilaydigan Bazel qo'mitasi tashkil etildi. Bazel qo'mitasining funksiyalaridan biri - xalqaro bank operatsiyalari ustidan nazoratni ta'minlashdir.

Bozorlarning rivojlanishi va moliyaviy faoliyatning internasionallashuvi bilan bir tizimli tavakkalchilik xalqaro tusga ega buldi. Shu munosabat bilan Bazel qo'mitasi xalqaro bank guruhlarini faoliyatining qat'iy iqtisodiy me'yorlarini belgilab qo'yish yo'li bilan ular faoliyati ustidan samarali nazorat qilish maqsadida pul-kredit siyosatining tashkil etilishi uchun mas'uliyatli milliy va xorijiy tashkilotlar urtasida hamkorlik bulishi zarurligiga diqqat-e'tiborni karatadi. 1978 yilda Kuk koeffisienti deb ataladigan to'lovga qobiliyati xalqaro koeffisientining ishlab chikilishi Bazel qo'mitasining birinchi tadbiri edi. 70-yillarning oxirida Bazel qo'mitasi

tomonidan xalqaro kapital<sup>11</sup> yetarliligi standartlarini ishlab chiqib, bunga bir qancha ob'ektiv sabablar mavjud edi<sup>12</sup>. Banklar faoliyatini baholashda xalqaro reyting kompaniyalarining roli kata bo'lib, Moody's, Standard & Poor's, Fitch Ratings eng mashhurlaridir. Moody's reyting agentligi tomonidan beriluvchi reytinglar tasnifi 1.1-jadvalda berilgan.

1.3-jadval

**Moody's reyting agentligi tomonidan banklar barqarorligiga beriluvchi reytinglar tasnifi**

A	Absolyut mustaqil, moliyaviy barqarorlikka ega banklar
B	Yuqori darajadagi mustaqil va moliyaviy barqarorlikka ega banklar
C	Etarli darajadagi mustaqillik va barqarorlikka ega banklar
D	Cheklangan barqarorlik va mustaqillik, bozor pozitsiyalarining kuchsizligi
E	Juda cheklangan mustaqillik va barqarorlikka ega banklar

Manba: www.moody.com

Banklarning xalqaro moliya bozorida faol qatnashishini ta'minlashda banklar uchun yaratiluvchi bozor muhiti muhim rol o'ynaydi. U rivojlangan mamlakatlarda quyidagilar bilan belgilanadi:

*1. Raqobatchilik shart-sharoitlarining tartibga solinishi.* Qonunga binoan barcha kredit institutlari uchun yagona yuridik maqom belgilangan, reglamentatsiya esa ularning faoliyat shart-sharoitlarini birxillashtirdi.

<sup>11</sup> «Капитал етарлилиги» тушунчаси» банкнинг ишончлилиги билдиради. У банк капиталининг рисклар даражаси билан ҳисобланган активларига нисбатининг фоизлардаги ифодасини билдиради. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. М., 1994, с. 297-303.

<sup>12</sup> Norton J. The Work of the Basle Supervisors Committee on the Bank Capital Adequacy and the July 1988 Report on International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards. - In: International Lawyer, 1989, vol. 23, p. 245 et seq.



## 2. *Kredit institutlarining zamonaviylashtirilishi.*

Keyingi yillarda moliya sohasida joriy etilgan yangiliklar banklar faoliyatiga jiddiy ta'sir kursatdi: yangi bozorlar, operatsiyalar turlari, bank ishi texnikasi paydo buldi. Shu munosabat bilan reglamentatsiyani shunday uzgarishlarga, jumladan, operatsiyalarni hisobga olishni baholash va ular qiymatini belgilash va eskirgan qoidalarni bekor kilish masalasi bo'yicha muvofiqlashtirish zarurati vujudga keldi.

3. *Bank faoliyati xavfsizligining kuchaytirilishi.* Ushbu g'oyat muhim vazifaning bajarilishi bank reglamentatsiyasining ko'p sonli chora-tadbirlarini qabul qilishni taqozo etdi, ayniqsa, 1988-1989 yillarda bir necha banklar og'ir moliyaviy ahvolga tushib qolganidan shunday bo'ldi. Bunday xujjatlar aksiyadorlik banklari va ular rahbariyati ustidan nazorat, ichki auditning kuchaytirilishi va qat'iy prudensial normalar joriy etilishiga taalluqlidir.

4. *Mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirish.* Mijozlarni xabardor qilishni va ular manfaatlarini himoya etishni takomillashtirish maqsadida pullarni «tozalab olish»ga qarshi kurash, xususiy shaxslarga beriladigan kreditlarning qaytarilishini qisman yoki to'liq rad qilishlar kartotekasi kabi va boshqa muammolar bo'yicha bir necha normativ xujjatlar qabul qilindi.

## **II BOB. KOREYA BANK TIZIMI FAOLIYATI TAHLILI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

### **2.1 Koreya bank tizimining rivojlanish bosqichlari**

Koreyada zamonaviy bank tizimi XIX asr oxirida Yaponiya kapitali bosimi ostida shakllanishni boshlagan. 1878 yilda Yaponiyaning birinchi Markaziy Banki Pusanda o'z filialini ochdi. Bank Yapon banknotlari emissiyasini va boshqa turli bank operatsiyalari bilan shug'ullangan, lekin shunga qaramay mamlakatda Koreya metall pullari ham ishlatilar edi. Keyinchalik Yapon banklari Koreyada bir qator o'z filiallarini ochishgan.

1909 yilda Koreyaning birinchi Markaziy Banki tashkil qilinib, unga Yaponiyaning Markaziy Bankidan milliy banknotalar emissiyasi huquqi berilgan. 1911 yilda, ya'ni Koreya Yaponiya tomonidan rasmiy anneksiya qilinganidan keyin, Koreya banki Bank Choson nomi bilan o'zgartirildi. Shu davrda ko'plab tijorat va ixtisoslashgan banklar, shuningdek, jamg'arma banki tashkil topgan. 1945 yilda mamlakat ozod qilinguniga qadar, Koreya bank tizimi, yuqorida ko'rsatilgan banklardan tashqari, ikkita tijorat bankidan, Choson jamg'arma banki va moliyaviy assotsiatsiyalar federatsiyasidan tashkil topgan. Choson jamg'arma banki asosan yapon hukumati obligatsiyalarini uzoq muddatli moliyalashtirishga mablag'larini kiritgan, moliyaviy assotsiatsiyalar federatsiyasi esa dehqonlar va kichik biznes sub'ektlariga qarzlarni (zaym) berishga ixtisoslashgan edi. Shunday qilib, hali yapon okkupatsiyasi davridan Koreyada ikki bosqichli bank tizimiga asos solingan edi, ammo Koreya banklari Yaponiya iqtisodiy manfaatlariga xizmat qilgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, Choson banki haqiqiy markaziy bank funksiyasini bajarmas edi. Bu bank valyuta emissiyasini amalga oshirar, tijorat banklariga xizmat ko'rsatar edi, lekin pul va kreditlar taklifi ustidan nazorat olib borish huquqi yo'q edi. Ba'zi hollarda aholi uchun tijorat banklari xizmatlarini ko'rsatar edi. Natijada mamlakat ozod bo'lganidan so'ng moliyaviy vaziyatni yaxshilash maqsadida markaziy bank tashkil etilishi kerak edi. 1947 yilda Choson banki tomonidan Markaziy bankni tashkil etish to'g'risida taklif berildi va bir yil davomida "Markaziy bankni tashkil etish to'g'risida" Qonunning loyihasi

tayyorlandi. 1949-1950 yillar davomida Markaziy bankni tashkil etish borasida hukumat tomonidan tayyorgarlik ishlari olib borildi. Bunda AQShdan mutuxassislar taklif etildi. Ularning ko‘magida “Koreya Banki to‘g‘risida” va “Bank faoliyati to‘g‘risida” qonunlar loyihasi tayyorlandi.

1950 yilda Monetar kengash, shu yilning 12 iyulida Markaziy Bank tashkil etildi. Uning bosh maqsadi, hozirgi kunga qadar, milliy valyutani chiqarish, monetar va kredit siyosatlarini yuritish, chet el valyutalari kurslarini nazorat qilish, mamlakat moliya tizimi to‘g‘risida statistik ma‘lumotlarni yig‘ish va tadqiqot qilish, xususiy banklar faoliyatini tartibga solishdir. Koreya banki davlatga kredit berishni amalga oshirib, davlatning mamlakat banklarini tartibga solish siyosatini amalga oshiruvchi hisoblanadi. Janubiy Koreyaning barcha banklari kredit layoqatligi Markaziy Bank tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Markaziy Bank tashkil etilishi bilan birga ixtisoslashgan banklar ham qayta tashkil etildi. 1951 yilda asos solingan Koreya rivojlanish bankining asosiy vazifasi Choson Shiksan bankini restrukturizatsiyalashdan iborat edi. Lekin iqtisodiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar natijasida bu bankning ishga tushishi orqaga surildi va faqatgina 1954 yildan faoliyat yurita boshladi. Keyinchalik bu bankning nomi Koreya rivojlanish bankiga aylantirildi.

“Bank faoliyati to‘g‘risidagi” qonunga ko‘ra 1951 yilning may oyida Agrarbank tashkil etildi. 1954 yilda “Bank faoliyati to‘g‘risidagi” qonun to‘latondi amal qila boshladi, bu qonunga ko‘ra tijorat banklarini xususiylashtirish jarayoni boshlandi. Xususiylashtirish jarayoni 1957 yilda tugadi, uning natijasida yangi egalarga qarashli yirik biznes-guruhlari tashkil topdi.

Urushdan keyingi davrdagi moliyaviy muammolarni hal etish maqsadida Koreya hukumati 1951-1952 yillar davomida besh marta pul islohotini o‘tkazdi. Uchinchi pul islohotida Choson banki tomonidan chiqarilgan eski banknotalar Koreya Banki banknotalari bilan almashtirildi. 1953 yilning fevral oyida o‘tkazilgan beshinchi pul islohotida vonalar xvanga o‘zgartirildi va 1%ga devalvatsiya qilindi.

Koreys urushi yakunlanganidan keyin (1950-1953), banklar oldida turgan asosiy vazifa iqtisodiy tiklanish uchun muhim bo'lgan sanoat va qishloq xo'jaligi loyihalarini moliyalashtirish edi. Shu maqsadda 1954 yili Koreya rivojlanish banki tashkil etilgan edi. Bank kapitali to'liq hukumat tomonidan moliyalashtirilgan edi. 1956 yilda moliyaviy assotsiyatsiyalar federatsiyasi Koreya qishloq xo'jaligi banki nomiga o'zgartirildi.

Ixtisoslashgan banklar XX asrning 60-yillarida shakllana boshlagan. Asosan ular iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan (besh yillik iqtisodiy rejalar asosida). Hozirda ixtisoslashgan banklar asosan qishloq xo'jaligi (National Agricultural Cooperative Federation), baliqchilik (National Federation of Fishes Cooperatives), tashqi savdo (Export-Import Bank of Korea) va sanoat (Industrial Bank of Korea) tarmoqlarida faoliyat olib boradi.

1960 yillarda zamonaviy erkin moliya tizimi yaratilganiga qaramay, bu davrda Koreya hukumati "kambag'allik qarmog'idan" chiqib keta olmadi. Bunday holat mamlakatda harbiy to'ntarilishga olib keldi, 1961 yilda davlat tepasiga kelgan Chang Xe Pak rahbarligidagi harbiy hukumat iqtisodiy modernizatsiyalash va sanoatlashtirishning besh yillik rejasini ishlab chiqdi. Moliyaviy sohani tartibga solishda davlatning roli ortdi. 1960 yilda iqtisodiyotni rivojlanishini tezlashtirish zarurati tufayli, bank tizimini qayta shakllantirish boshlandi. 1961 yilda tijorat banklarining aksionerlik kapitalining katta qismi davlat tassarufiga o'tkazildi, Koreya Banki to'g'risidagi qonunga esa pul siyosatini samarali oshirilishi uchun o'zgartirishlar kiritildi.

1962 yilning 24 mayida hukumat tomonidan "Koreya Banki to'g'risidagi" qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bunday o'zgartirish butun moliya tizimini davlatning bevosita nazorati ostiga o'tkazdi, natijada Koreya Banki butunlay Moliya vazirligiga bo'ysundi.

"Koreya Banki to'g'risidagi" qonunga o'zgartirishlar kiritilishi tijorat banklarining ham mavqeini o'zgartirdi. Hukumat juda ko'pchilik tijorat banklarining aksiyalariga ega bo'ldi, ko'pchilik banklarning aksiyalari musadora qililib, deyarli barcha tijorat banklarining monopol egasiga aylandi.

Ba'zi moliyaviy xizmatlarga ixtisoslashgan banklar "Bank faoliyati to'g'risidagi" Qonunga binoan emas, balki maxsus qonunlar asosida tashkil etildi va butunlay davlatga qarashli edi. 1961 yilda kichik va o'rta sanoat banki, Fuqaro milliy banki, Agrar kooperativlar Milliy federatsiyasi, Baliqchilik bo'yicha kooperativlarning milliy federatsiyasi tashkil etildi. 1967 yilda ularga Koreya birja banki, Koreyani rivojlantirish moliya korporatsiyasi, 1968 yilda Koreya Trast banki, 1969 yilda Koreya uy-joy qurilish banki va Eksimbank qo'shildi.

Keyinchalik, bank tizimi iqtisodiyotning yangi ehtiyojlari asosida qayta ko'rib chiqildi. Hududlarning barqaror rivojlanishi uchun provinsiyalar banklari ochildi. Tashqi savdoning o'sishi va iqtisodiyotning baynaminallashuvi bilan bir qatorda mamlakatda xorijiy banklar filiallari ochila boshladi.

1960 yillarda davlatning tijorat banklariga nisbatan bosimi orta boshladi. Xususan, shu davrda, daromadlarini davlatdan bekitishga harakat qilgan banklar aksiyalari musodara qilingan. Bu o'n yillikning oxiriga kelib, hukumat mavjud bank tizimi, iqtisodiyot rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, investisiya mablag'lariga o'suvchi talabni qondirish imkonini yaratib berolmasligini tushunib yetdi. Shu tufayli investisiyalar manbai doirasini turli hildagi nobank kredit-moliyaviy muassasalarini tuzish, hamda qimmatli qog'ozlar bozor rivojlanishini rag'batlantirish orqali kengaytirishga harakat qilingan.

60-yillarning oxiriga kelib, uzoq muddatli moliyalashtirish maqsadida Koreya rivojlanishining moliyaviy korporatsiyasi - xususiy kredit-moliyaviy muassasa tashkil etildi, keyinchalik uzoq muddatli kredilash Koreya banki nomi bilan o'zgartirildi. Shuningdek, eksportga hamda xorijiy investisiyalarga moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida Koreya Eksport-import banki ochildi edi.

Shu bilan birga hukumat Koreyada xorijiy banklarning faoliyatiga qo'yilgan cheklolarni bekor qildi. Natijada bir nechta xorij banklari mamlakatda o'z filiallarini ochdi. Jumladan, Cheyz Maxetten, Amerika banki, Daytch Kangku banklari o'z ishini boshladi.

1962 yilda hukumat pul islohotini o‘tkazdi, unga ko‘ra xvan yana vonga aylantirildi va 1:10 nisbatda devalvatsiya qilindi.

1972 yilda prezidentnig “qora bozor” dagi mablag‘larni shakllangan fond bozoriga jalb qilish to‘g‘risidagi favqulodda farmoni chiqqandan keyin, savdo korxonalari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bilan qisqa muddatli operatsiyalarni amalga oshirish uchun investisiya-moliyaviy kompaniyalar tuzilgan. 1974 yilda xorijiy kapitalni jalb qilish va tadbirkorlarni o‘rta va uzoq muddatli kreditlar bilan ta‘minlash maqsadida savdo bank korporatsiyalari ta‘sis etilgan.

Qimmatli qog‘ozlarga kapital kiritishni rivojlantirishiga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar tufayli 1972 yilda fond bozori keskin rivojlana boshladi.

Banklarga nisbatan ko‘proq erkinliklarga ega bo‘lgan nobank kredit-moliyaviy uyushmalari soni, foiz stavkalari yuqori bo‘lganligi tufayli keskin o‘ydi. Nobank kredit – moliyaviy uyushmalari depozitlar summasi bo‘yicha ulushi 1971 y. 15.1% dan 1992 y. 63.8%gacha o‘ydi. Ayniqsa, investisiya-moliyaviy kompaniyalar ulushi sezilarli o‘ydi. Shunday qilib, bank tizimi, hamda nobank kredit-moliyaviy tashkilotlarining rivojlanishi favqulodda emas, balki, davlatning qattiq nazorati ostida amalga oshirilgan. Bu sharoit bank tizimining nisbatan yuqori darajali samarador faoliyatini namoyon etdi, ammo davlat nazorati iqtisodiyot rivojlanmagan va tarmoq tarkibi oddiy bo‘lgan davrdagina samarali hisoblanar edi. Shu tufayli 80-yillarning boshlaridan iqtisodiyotni hukumat tomonidan tartibga solinishini erkinlashtirish va bozor iqtisodiyoti tizimini singdirish maqsadida, keng miqyosli tuzilmaviy o‘zgartirishlar boshlandi. Bunday siyosat bozor mexanizmlari rolini oshirish va iqtisodiyotning har bir soxasida raqobatga erishishga qaratilgan edi. Shu borada bank tizimini liberalizatsiya qilish va raqobat muxitini rivojlantirish uchun turli xildagi chora tadbirlar qabul qilingan.

Bu davrda moliya-kredit sohasida amalga oshirilgan chora tadbirlar quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- Qat'iy fiskal tartibga solish, ya'ni davlat byudjeti xarajatlari qisqartirildi, davlat obltgatsiyalarini chiqarish to'xtatildi;
- Qat'iy monetar tartibga solish, inflyatsiyani jilovlash siyosati;
- Moliyaviy sohani erkinlashtirish, bunda maqsadli qarzlar hissasini kamaytirishga, 1980 yillarga kelib esa ularni butunlay to'xtatishga erishildi;
- Yirik tijorat banklari xususiylashtirildi;
- Jahon bozoriga kirib borish.


Bu davrda to'rtta davlat tijorat banklari xususiy sektorga berib yuborildi: Xanil bank (1981 y.)<sup>13</sup>, Koreyaning birinchi banki va Seul Banki va trast kompaniyalar (1982 y.), Choxin Banki (1983 y.). Koreya Tijorat banki 1972 yildayoq xususiylashtirilganligini hisobga olgan holda, beshta yetakchi tijorat banklari davlat tasarrufidan chiqarilgan edi. 1989 y. dekabr oyida Koreya valyuta banki ham xususiylashtirildi.

1993 yilda bank sohasida islohotlarni o'tkazishga yana urinishlar bo'ldi. Lekin to'laqonli islohotlar 1997 yildagi moliyaviy inqirozdan keyin amalga oshirildi. 1997 yilda Koreya hukumati XVF bilan iqtisodiyotni tiklash bo'yicha dasturlar paketini imzolashi bilan to'qqizta to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan bank muassasi faoliyatini to'xtatdi. Shu bilan birga barcha banklarga depozitlar bo'yicha kafolat berdi va Btrinchii Koreya Banki va Seul bankiga 1,5 trln. von miqdorida yordam berdi. Bunday choralar moliyaviy islohotlarga to'sqinlik qildi va natijada xalqaro standartlar asosida banklarning faoliyati tahlil etildi hamda ular to'dov qobiliyatiga ega va ega bo'lmagan guruhlariga ajratilib, restrukturizatsiya qilindi. Natijada Koreya Respublikasining zamonaviy bank tizimi tuzilishi shakllandi. (2.1-rasm.)

---

<sup>13</sup> Банкларнинг хусусий секторга берилган йили

## 2.1-rasm. Hozirgi kunda Koreya Respublikasi bank tizimining tuzilishi



Moliya bozorining erkinlashuvi natijasida u chet ellik banklarning kirib kelishi uchun chegaralarni olib tashladi. Natijada Koreya banklarining oldida raqobatbardoshlikni oshirish masalasi yuzaga keldi. Buning uchun muddati o'tgan kreditlar muammosini tezlik bilan hal etish kerak edi. Shuningdek, ular raqobat ustunligiga ega sohalarga ixtisoslashishi kerak edi. Universal bank tizimini joriy etish bank sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak bo'ldi. Shuni ta'kidlash zarurki, so'nggi vaqtlarda Koreya banklari xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan barqaror sifatida baholanmoqda. Jumladan, Moody's reyting agentligi barqaror reytingni pozitiv reytingga almashtirdi. Bunga sabab bu sohada amalga oshirilgan islohotlardir.



## **2.2. Osiyo moliyaviy inqirozidan keyingi davrda Koreya bank tizimining xususiyatlari**

Uzoq davom etgan barqaror o'sish davrini boshidan kechirgan Koreya Respublikasi XX asrning 90 yillari oxirida Osiyoda yuz bergan chuqur moliyaviy inqirozga yuz tutdi. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari moliya bozorida yuz bergan inqiroz mamlakatning iqtisodiy muammolarini chuqurlashtirib yubordi, Janubiy Koreya vonining kursi juda tez sur'atlar bilan tusha boshladi. Mamlakatning oltin-valyuta zaxirasi ayanchli ahvolga tushib qoldi. 1997 yilda Taylanda avj olgan Osiyo moliyaviy inqirozi Koreya iqtisodiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Inqiroz Koreya fond bozorining ag'darilishi, buning natijasida esa bir qancha yirik kompaniyalar kasodga uchrashi bilan boshlangan. Xalqaro banklar Osiyo mintaqasi mamlakatlariga kredit liniyalarini qisqartira boshladi, natijada uzoq muddatli kreditlarga asoslangan koreys korporatsiyalari qisqa muddatli qarzdorlikni moliyalashtirish muammosi vujudga keldi. O'z navbatida xorijiy banklar mamlakatdan pullarini olib chiqishni boshladilar, valyuta rezervlari keskin kamaydi. Shuningdek, korxonalar va banklarning moliyaviy tizimining sustligi inqirozning ichki sabablaridan biridir.

Moliyaviy inqiroz mamlakat iqtisodiyotiga qattiq zarba bo'ldi: YaIM 6,7% ga qisqardi, ko'plab korxonalar kasodga uchradi, ishsizlik ko'rsatkichi keskin o'sdi, ish haqi pasaydi, qisqa muddatli foiz stavkalari bir oyda 15dan 35-50%gacha ko'tarildi.

Avj olgan moliyaviy inqiroz mamlakat bank sektorini takomillashtirish rejasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritilishiga sabab bo'ldi. Chuqur islohotlar maqsadlari sifatida hukumat banklar, fond uylari va sug'urta kompaniyalarining faoliyatini cheklashni bekor qilib, bu institutlar o'rtasida raqobatni rag'batlantirgan holda, xalqaro doirada raqobatbardosh bo'la oladigan moliyaviy sektorni shakllantirishga, xorijiy kapitalni jalb qilish nazoratini yumshatish va yirik konsernlarni kreditlash yangi me'yorlarini o'rnatishlardan iborat bo'lgan.

1998 yil fevral oyiga qadar Janubiy Koreya moliyaviy institutlarning ommaviy kasodga uchrashini oldini olib kelishiga qaramay 1997 yil yakunlaridagi

ma'lumotlarga ko'ra Koreya Respublikasida 14ta tijorat banklari o'z faoliyatlarini to'xtatgan.

Inqiroz oldini olish maqsadida 1997yilda hukumat tijorat banklariga shoshilinch moliyaviy yordam ko'rsatish siyosatini ishlab chiqdi. Xorijiy kapitalni jalb qilish maqsadida birjada mavjud kompaniyalarning, shuningdek norezidentarga ham tegishli bo'lgan kompaniyalar ham, aksionerlik limitining 22-26%gacha oshishi to'g'risida e'lon qildi. Lekin shu bilan birga davlat kompaniyaaridagi norezidentlar ulushi 18%gacha cheklanib qo'yilgan edi. 1998yil mayida hukumat kasodga uchrayotgan banklarni qayta moliyalashtirish va va ularning 118 trln von (82mlrd AQSh dollari) miqdordagi qarzlarini sotib olishini e'lon qildi. Bu chora esa deyarli bank sektorining katta qismini miliylashtirish va tijorat banklarining moliyaviy holatini barqarorlashtirish edi. Bu rejaga asosan banklarga kapital davlat obigatsiyalari sifatida berilgan. 50 trln. von miqdordagi obligatsiyalar emitentari sifatida Koreya kirimlarni sug'urtalash korporatsiyasi va Koreya aktivarini boshqarish korporatsiyalari ishtirok etishgan. 1997yil yanvaridan Janubiy Koreyada 1995 yil dekabrda parlament tomonidan qabul qilingan Bank depozitlarini sug'urtalash to'g'risidagi qonun kuchga kirdi. Qonunchilik asosida 1996 yilda AQSh depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi namunasida Koreya depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi tashkil qilingan edi. Sug'urtalash jarayoniga tijorat banklari, xorijiy banklar filialari va rivojlanish muassasalari jalb qilingan. Shuningdek qonun asosida barcha ishtirokchi-banklar uchun depozitlarining umumiy miqdorining 0.05%dan ko'p bo'lmagan miqdorda yagona foiz mukofoti belgilangan. Ammo keyinchalik differensiyalashgan sug'urta mukofatlari tizimi yo'lga qo'yildi, unga asosan banklarning moliyaviy holati va tavakkalchilikka moyillik darajasiga bog'liq ravishda, depozitlar miqdorining 0.05%dan ko'p bo'lmagan miqdordagi soliq mukofoti to'lanadi. Kasodga uchrash holati yuz bersa, sug'urtaning dastlabki qiymati har bir omonatchi uchun 20million vonni (27ming dollar) tashkil etadi. Ishtirokchi banklarning majburiy badali bank kapitalining 1%dan yuqori bo'lmashligi kerak. 1997-1998 yillarda bank sohasida

amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida Koreyaning zamonaviy moliya institutlari tizimi shakllandi.

Koreyada moliyaviy institutlar banklar, nobank moliyaviy institutlari, tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari moliyaviy investisiyalari, sug'urta kompaniyalari va moliyaviy xolding kompaniyalaridan tashkil topgan. Koreya bank tizimi dunyoning ko'plab mamlakatlari singari ikki darajali bo'lib, birinchi pog'onada Markaziy Bank ya'ni Koreya banki va ikkinchi pog'onada tijorat banklari va ixtisoslashgan banklar turadi. Koreyada tijorat banklari "Banklar faoliyati to'g'risidagi qonun" asosida tartibga solinib, umummilliy banklar, mahalliy banklar va xorijiy banklar filiallarini birlashtiradi.

## 2.1- jadval

### Koreya Respublikasi moliyaviy institutlari<sup>14</sup>

Moliyaviy institutlar			Soni <sup>15</sup>
Banklar	Tijorat banklari	Umummilliy tijorat banklari	7
		Mahalliy banklar	6
		Xorijiy banklar filiallari	38
	Ixtisoslashgan banklar	5	
Nobank moliyaviy institutlar	O'zaro omonat banklari		106
	To'g'ri investisiya korporatsiyalari		2
	Maxsus Kredit-Moliyaviy Korporatsiyalar	Kredit Kartalar kompaniyalari	5
		Lizing kompaniyalari	24
		Moliyaviy rassrochka kompaniyalari	16
		Venchur kapitalli yangi texnologik kompaniyalar	11
Kredit ittifoqlari		962	

<sup>14</sup> Korea Banki yillicik hisoboti, 2010

<sup>15</sup> Ruxsatnomaга асосланган, хорижий молиявий институтлар филиалларини ҳисобга олган ҳолда

Sug'urta kopmaniyalar	Hayotni sug'urtalash kompaniyalari <sup>16</sup>		22
	Non-Life turdagi sug'urta kompaniyalari	Ko'chmas mulk va ma'suliyatni sug'urtalash kompaniyalari <sup>17</sup>	20
		Qayta sug'urtalash kompaniyalari <sup>18</sup>	9
		Kafolat sug'urta kompaniyalari	1
Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq kompaniyalar	Qimmatli qog'ozlar kompaniyalari <sup>19</sup>		61
	Aktivlarni boshqarish kompaniyalari		53
	Investisiya konsalting kompaniyalari <sup>20</sup>		92
	Fyuchers kompaniyalari		14
Moliyaviy Xolding kompaniyalari			9

Ixtisoslashgan banklar “Banklar faoliyati to'g'risidagi qonun” asosida emas, ba'lki, maxsus qonunchilik asosida faoliyat yuritadilar.

Koreyaning Markaziy banki sifatida Koreya Bankining asosiy vazifasi narxlar va moliyaviy bozorning barqarorligini ta'minlab, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdir.

<sup>16</sup> 7 ta чет эл суғурта компанияларини ва 1 та чет эл суғурта компанияси филиалини ҳисобга олган ҳолда

<sup>17</sup> 2 та чет эл суғурта компанияларини ва бта чет эл суғурта компанияси филиалларини ҳисобга олган ҳолда

<sup>18</sup> 8 та чет эл суғурта компанияси филиалларини ҳисобга олган ҳолда

<sup>19</sup> 14 та чет эл суғурта компанияси филиалларини ҳисобга олган ҳолда

<sup>20</sup> 92та инвестицион консалтинг, 53та активларни бошқариш, 23та қимматли қоғозлар компанияларидан ташқари, яна 65та оффшор инвестицион консалтинг компаниялар хизмат кўрсатади

## 2.2- rasm.Koreya Markaziy Bankning tashkiliy tuzilishi<sup>21</sup>:



Markaziy Bankning asosiy funksiyalari:

- Pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Banknota va tanga pullarni muomalaga chiqarish;
- To'lov tizimini boshqarish;
- G'aznachilik Banki funksiyalarini amalga oshirish;
- Xorijiy valyutani boshqarish;
- Statistik ma'lumotlarni yig'ish va iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirish;
- Moliyaviy institutlarlar faoliyati tahlilini amalga oshirish;<sup>22</sup>

<sup>21</sup> Koreya Bankining Йиллик ҳисоботи 2010

<sup>22</sup> Koreya Bankining Йиллик ҳисоботи 2008



**2.3-rasm. Koreya Bankining funksiyalari.**

Hozirgi kunda Markaziy Bank 16ta departament bo‘limlaridan (12 ta bo‘lim, 12 ta bo‘linma, 1 ta institut (pul-kredit va iqtisodiy tadqiqot instituti) va 1 ta iqtisodiy-ta’lim markaz), departamentlar qoshidagi 12 ta bo‘limlardan va 3ta nazorat bo‘linmalaridan, 117 ta guruhlardan (111 ta guruh va 6 ta ilmiy-tadqiqot institutlari) va bita bosh ofisdan iborat. Undan tashqari mamlakat hududida Koreya bankining 16 ta filiallari, 7 ta rejalashtirish va tadqiqot markazlari, hamda 5 ta xorijdagi bo‘limlari xizmat ko‘rsatadi.

Koreyada tijorat banklari “Banklar faoliyati to‘g‘risidagi qonun” asosida tartibga solinib, umummilliy banklar, mahalliy banklar va xorijiy banklar filiallarini birlashtiradi. Umummilliy banklar mamlakat ichida o‘z filialariga ega bo‘lib, birinchi o‘rinda omonatlarni, to‘lovlarni qabul qilish, kreditlar bilan

shugʻullanadi. Shuningdek, fond va qimmatli qogʻozlar bozorida chegaralangan faoliyat yuritadilar.

Umummilliy banklarga nisbatan mahaliy banklar asosan viloyatlarda faoliyat yuritadilar. Ularning asosiy mijozlari kichik va oʻrta korxonalar hisoblanadi. Mahalliy banklar faoliyati deyarli umummiy banklar faoliyati kabidir, ammo ulardagi valyuta operatsiyalari, xorij valyutasidagi kreditlarni va depozitarni hisobga olgan holda, bank operatsiyalarining umumiy miqdorining juda kichkina masshtablarida amalga oshiriladi.

Oldin xorijiy banklar filialari faqatgina ulgurji bank tadbirkorligini yuritishi mumkin boʻgan, milliy banklar esa ham chakana, ham ulgurji bank faoliyatini olib borganlar. Bu esa oʻz navbatida banklar salohiyatini cheklagan, bu cheklanma olib tashlangandan soʻng hozirgi kunda xorijiy banklar filiallari faoliyatida chakana bank xizmatlari tobora ortishi bilan birga ichki bozorda banklar ulushi ham ortib bormoqda.

Hozirgi kunda Koreyada 7 ta umummilliy tijorat banklari, 6 ta mahalliy banklar va 38 ta xorijiy bank filiallari faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, Koreya Respublikasida hozirda 5 ta ixtisoslashgan banklar faoliyat yuritadi.

- Koreya Rivojlanish Banki (Korea Development Bank) – sanoatning yetakchi tarmoqlarini, shu bilan birga asosan yirik tadbirkorlikka xizmat koʻrsatuvchi va milliy maqsadli dasturlarni amalga oshirishni moliyalashtiruvchi bank;
- Eksport-Import Banki (EXIM Bank: Export-Import Bank)- eksport-import operatsiyalarini, chet edagi investision dasturlarni, hamda xorijda tabiiy resurslarni rivojlantirishni amalga oshirishni moliyalashtiruvchi bank;
- Koreya Sanoat Banki (Industrial Bank of Korea)- kichik va oʻrtacha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi bank;

- Qishloq xo‘jaligi kooperativlari milliy federatsiyasining kredit-bank sektori (National Agricultural Cooperative Federation)- qishloq xo‘jaligi va o‘rmonchilik xo‘jaliklari tarmoqlarida qarzlar (zaym) beradi;

- Baliqchilik kooperativlari milliy federatsiyasining kredit-bank sektori (National Federation of Fishers Cooperative)-baliqchilik tarmog‘i, chorvachilik shuningdek, qisman qishloq xo‘jaligi va o‘rmonchilik tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Ixtisoslashgan banklarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular avval tijorat banklari daromadlarining pastigi va imkoniyatlari cheklanganligi tufayli ular tomonidan moliyalashtirilish yetarli darajada bo‘lmagan, iqtisodiyotning spetsifik tarmoqlarini moliyalashtirish uchun tuzilgan. Keyinchalik, moliyaviy muhit o‘zgarilishi bilan ixtisoslashgan banklar faoliyati ham kengaytirildi, hozirda ko‘pchilik ixtisoslashgan banklar tijorat banklari singari operatsiyalarni bajaradilar.



### **2.3. 2008-2010 yillardagi moliyaviy inqiroz hamda inqirozdan keyingi davrda**

#### **Koreya bank tizimidagi o'zgarishlar**

2008 yilda avj olgan jahon moliyaviy inqirozi global moliyaviy tizimga ta'sir ko'rsatdi va zanjir reaksiyasi bilan turli mamlakatlar iqtisodiyotining resessiyasiga olib keldi. Birinchi navbatda bank tizimlari barqarorlikni yo'qota boshladilar, keyinchalik likvidlik inqirozi kelib chiqdi. Ko'plab korxonalarining kasodga uchrashi, kredit tashkilotlari va sanoat kompaniyalarining qo'shilishi va yutilishi natijasida bir qator investisiya loyihalari tugatilishi, ishchi o'rinlarining qisqarishi va hakoza muammolar kelib chiqa boshladi. Inqiroz jahon xo'jaligining tashqi iqtisodiy aloqalari o'rnatilgan barcha mamlakatlarga ta'sir ko'rsatdi. Koreya Respublikasi iqtisodiyoti 1997 yilgi inqirozdan so'ng yangi inqirozga ancha tayyor bo'lishiga qaramay, mamlakat iqtisodiyoti uchun bu qattiq zarba bo'ldi. 1997 yilgi Osiyo moliyaviy inqirozi ta'siri natijasida Koreya hukumati XVFDan yordam so'rashga majbur bo'lgan, shu davrda mamlakatda moliyaviy, korporativ, davlat sektorlarini, hamda mehnat bozorini isloh qilish bo'yicha bir qator yirik loyihalar amalga oshirilgan. Ammo 1997 yilgi inqirozdan oldin mamlakat oltin valyuta zahirasi faqatgina 9 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2006 yil boshiga 215 mlrd AQSh dollarga yetdi. 2008 yilgi moliyaviy inqirozga Koreya respublikasi ancha tayyor edi, mamlakat oltin valyuta zahirasi 240 mlrd AQSh dollarini tashkil yetgan.

2.2-jadval

#### **Koreya Respublikasi oltin-valyuta zahirasi, mlrd. dollarda**

<b>1997 (boshi)</b>	<b>2006</b>	<b>2008 (boshi)</b>	<b>2009 (avgust)</b>	<b>2011</b>
<b>9</b>	<b>21 5</b>	<b>240</b>	<b>237,5</b>	<b>306,4</b>

Manba: [www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/ks.html](http://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/ks.html)

Ammo inqirozning keng miqyosligi Janubiy Koreyani ham tezkor ravishda inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishga majbur bo'ldi. 2008 yil noyabr oylarida mamlakatning matbuotlarida yozilishicha, moliyaviy sektor va ko'pchilik tijorat banklari likvidlik yetishmasligi hamda, banklararo kreditlashda

qiyinchiliklarni boshidan kechirganlari ta'kidlangan. Mamlakatning Kookmin, Woori, Shinhan va Hana kabi eng yetakchi banklarida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash bilan bog'liq muammolar kelib chiqa boshlagan. Ammo shuni aytish joizki, Koreya Respublikasining moliyaviy qonunchiligiga asosan Koreya banklari kichik biznesga moliyaviy yordam ko'rsatishlari shart.

2.3-jadval

Banklarning 2006-2010 yillarda daromadlari (sof foyda)<sup>23</sup>

<b>2006 yil</b>	13,331.7 mlrd von
<b>2007 yil</b>	15,029.0 mlrd von
<b>2008 yil</b>	7,597.3 mlrd von


Banklar daromadlarining qisqarishi, ishlab chiqarish hajmi pasayishi bilan bir qatorda eksportning va importning umumiy hajmi ham sezilarli qisqardi.

2008 yil iyulida inflyatsiya darajasining keskin o'sishi kuzatildi, 10yil ichida birinchi marta inflyatsiya darajasi 6%ga yetdi. Inflyatsiyani oldini olish maqsadida, Koreya Banki qayta moliyalantirish stavkasini 5%dan 5,25% ga oshirdi va valyuta intervensiyasi siyosatini yurita boshladi. Bu choralar o'z natijasini berib, inflyatsiya darajisini pasaytirilishiga olib keldi. Shunigdek Koreya vonasi kursi 4 yil ichida eng past darajaga tushdi.


---

<sup>23</sup> Манба: Корея Банки

## 2.4-rasm. Inflyatsiya darajasining o'zgarishi<sup>24</sup>



Inflyatsiyani oldini olish maqsadida, Koreya Banki qayta moliyalatirish stavkasini 5%dan 5,25% ga oshirdi va valyuta intervensiyasi siyosatini yurita boshladi. Bu choralar o'z natijasini berib, inflyatsiya darajisini pasaytirilishiga olib keldi. Shunigdek Koreya vonasi kursi 4 yil ichida eng past darajaga tushdi.




<sup>24</sup> Манба: *Корея Банки (Монетар сиёсатининг ярим йиллик ҳисоботи сентябрь 2011)*

## 2.5-rasm. Koreya voni kursining o'zgarishi (AQSh dollariga nisbatan)<sup>25</sup>

Vonning dollarga nisbatan kursi 2008yil mart oyidan boshlab qadrini yo'qolishini nomoyon qila boshladi. Jahon moliyaviy inqirozi tufayli xorijiy sarmoyalarning kamayishi hamda joriy hisob defesiti sababli Koreya vonni 2008yil 24noyabrda 1998yildan keyin dollarga nisbatan eng baland ko'rstakichini, 1\$=1,513 vonga to'g'ri keldi. 2010yil aprel oyi yakunida 1\$=1,104 vonga teng bo'ldi.

Koreya Banki 2008-2009yillar davomida o'zining pul-kredit siyosatini davom ettirgan holda, asosiy urg'uni iqtisodiyotni va moliyaviy bozorlarni barqarorlashtirishga berdi. Bu asosida Koreya Banki, o'zining qayta moliyalashtirish stavkasini darajasini pasaytirib borib, eng kichik darajada, ya'ni 2% da ushlab turibdi.




## 2.6-rasm. Koreya Banki qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi<sup>26</sup>

<sup>25</sup> Манба: Корея Банки

<sup>26</sup> Манба: Корея Банки (Монетар сиёсатининг ярим йиллик ҳисоботи сентябрь 2011)


2009 yilda moliyaviy va iqtisodiy sharoitlarining yaxshilanishiga qaramay, Koreya Banki qayta moliyalashtirish stavkasini past darajada ushlab turishining asosiy sababi xalqaro iqtisodiy sharoitlarda noaniqlik darajasi balandligidir. Shuningdek, birinchi navbatda, moliyaviy sharoitni barqaror ushlab turish xususiy sektorni to'liq tiklanishi uchun muhimdir, chunki haligacha ichki iqtisodiy barqarorlik byudjet xarajatlari oshishi hisobiga davlat siyosati orqali ta'minlanmoqda. 2010 yil birinchi choragidan boshlab Koreya Banki o'zining pul-kredit siyosatiga binoan umumiy iqtisodiy sharoit yaxshilanishi asosida qayta moliyalashtirish ko'rsatkichini ko'tarishni bir necha bosqichda amalga oshirib, hozirda 3,25%da ushlab turilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, inqiroz bosimi ostida aksiyalar narxi keskin pasaygan. 2008 yil oktabr oyida Koreya fond bozori indeksi (KOSPI) keskin 126,5bandga pasaydi va 938,3 ko'rsatkichni nomoyon etdi. Aksiyalar narxining bunday pasayishi, mamlakat moliviy bozorida notinch vaziyatni yuzaga keltirdi: kursning pasayishiga, xorijiy portfel investisiyalar kelishini qisqarishi va albatta umumiy daromadning pasayishiga sabab bo'ldi.



## 2.7-rasm. Inqiroz davrida KOSPI va KOSDAQ indekslarining o'zgarishi<sup>27</sup>

Moliyaviy inqirozga qaramay banklar depozitlari va aktivlari 2008 yilda ham ijobiy ko'rsatkich ko'rsatgan, ammo sof daromad ko'rsatkichi o'tgan yillarga nisbatan pasaygan. Banklarning umumiy daromadlari keskin qisqara boshladi. Misol uchun, eng yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan Kookmin bank 2007 yilga nisbatan 28.6% ga pasayishni ko'rsatdi.



## 2.8-rasm. Banklarning aktivlari<sup>28</sup>

2008 yil yakunlariga ko'ra Koreya Banki aktivlari 312,340 mlrd vonni tashkil etgan, bu o'tgan yilga nisbatan 11,120.2 mlrd vonga kamroqdir. Janubiy Koreyaning oltin valyuta zahiralari 2009 yil avgust oyida oxirgi 10 oy ichida eng yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi- 237,51 mlrd AQSh dollari, bu o'z navbatida bir oy oldingi ko'rsatkichga nisbatan 5.78 mlrd AQSh dollariga ko'pdir. Buning asosiy sababi sifatida, investisiyalardan keladigan daromadlarning o'sishi va xorijiy valyuta likvidligini oshishi ta'kidlangan. Janubiy Koreya oltin valyuta zahirasiga Markaziy bank, mamlakat moliyaviy organlari va xalqaro valyuta-kredit tashkilotlaridagi xorijiy valyuta zahiralari, qarzga olish maxsus huquqi va oltin

<sup>27</sup> Manba: Koreya moliyaviy nazorat tizimi hisoboti 2010

<sup>28</sup> Manba: Koreya Banki Yillik hisoboti 2010

quymalari kiradi. 2009 yil iyul oyida Janubiy Koreya valyuta zahirasi miqdori bo'yicha dunyoda Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Tayvan va Hindistondan keyin 6 o'rinni egallagan.

Xalqaro iqtisodiy sharoitdagi o'zgarishlar Koreya bank tizimiga ta'sir ko'rsatganiga qaramay, hozirda mamlakat bank tizimini barqaror deb baholash mumkin. Buni Banklar likvidligi ko'rsatkichidan ham ko'rish mumkin.

**Jadval 2.4**

**Banklar likvidligi ko'rsatkichi<sup>29</sup>**

	2006	2007	2008
<b>Sof daromad</b>	13.3	15.0	7.6
<b>Aktivlar rentabelligi(%)</b>	1.13	1.10	0.47
<b>Xussiy kapital rentabelligi(%)</b>	14.91	14.60	7.09

Inqirozning eng avj olgan davrida, Xalqaro Valyuta Fondining rahbari Dominik Shtraus-Kan Respublika Koreya to'g'risida quydagicha bayonot bergan:

“XVF Janubiy Koreya hukumati tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, Janubiy Koreya banklarining tashqi qarz olishlariga e'lon qilingan kafolatlari Koreya Respublikasi siyosatini rivojlangan mamlakatlar bilan yaqinlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek mintaqadagi ba'zi mamlakatlar bilan ham, hamda mahalliy dollarni moliyalashtirish bozoridagi tanglikni yengillashtirishga yordam beradi.

Jahon moliyaviy sharoiti bir qancha muddatga o'zgaruvchan bo'lib turishiga qaramay, Janubiy Koreya tomonidan qabul qilingan bir qator chora-tadbirlar Koreya moliyaviy tizimiga bo'lgan ishonchini oshirib, yirik valyuta zahiralarini hisobga olgan holda, barqaror makroiqtisodiy asoslarini qaytarishga olib keladi. ”

<sup>29</sup> Манба: Корея молиявий назорат тизими ҳисоботи 2009

Keyinchalik, “Standart end purz” (Standard & Poor’s) reyting kompaniyasi Koreya Respublikasi banklariga quyidagicha baho bergan: “Biz Koreya banklarining fundamental asoslari turg‘un qolishiga ishonchimiz komil, shu sababli moliyaviy sharoitga vaqtinchalik har qanday ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlar, hukumat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar natijasida muammo bo‘la olmaydi deb o‘ylaymiz.”<sup>30</sup>

Hozirda Koreya banklari dunyoning etakchi banklari qatoridan o‘rin egallaydi. Moliyaviy muhit o‘zgarishiga qaramasdan 2011 yilda Koreya respublikasiga “Fitch Ratings” agentligi tomonidan berilgan A+ suveren kredit reytingi o‘zgarishlarsiz qoldirilgan.

Tahlil qilingan ma’lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Koreya bank tizimi mavjud iqtisodiy va moliyaviy sharoitlarning salbiy tomonga o‘zgarganligi davrida ham, ba’zi qiyinchiliklarga qaramay, barqarorlikni nomoyon yetib, hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosat ostida, takomillashishda davom etmoqda.

---

<sup>30</sup> <http://www.infokorea.ru>



### **3-BOB. JANUBIY KOREYA BANK TIZIMI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI**

#### **3.1 Koreya hukumatining moliyaviy inqiroz sharoitida banklarni qo'llab- quvvatlash siyosati**

2008-2009yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli vujudga kelgan vaziyat dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari hukumatlarini inqirozdan chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishga barcha kuchlarini sarflashga majbur qildi. Bu borada, Koreya Respublikasi hukumati tomonidan qo'llanilgan kuchli moliyaviy zahiraga, iqtisodiyotga horijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmini samaraliligiga hamda innovasion yondashuvga asoslangan inqirozga qarshi choralari qiziqish uyg'otadi.

2008-2009 yillarda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga Koreya Respublikasi avvalgi inqirozlarga nisbatan tayyorlangan holda keldi. Lekin inqirozning global xususiyati bu mamlakat iqtisodiyotida ham qisqarish yuz berishiga olib keldi. Koreya Bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2008 yilda mamlakat YaIMning 2007 yilga nisbatan qisqarishi 5,6%ni tashkil etgan, 2008 yilda uning o'sishi 2,2%ni tashkil etdi. Inqiroz davridagi eng katta o'sish agrosanoat majmuasiga to'g'ri keldi. Iste'mol xarajatlarining kamayishi yuz berib, ayniqsa qimmat tovarlarga bo'lgan talab qisqardi. 2009 yilning birinchi choragi eksport hajmi 2008 yilning shu davriga nisbatan 33,8%ga, import esa 30,7%ga qisqardi. Sanoatning deyarli barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishning qisqarishini kuzatish mumkin. Natijada ishsizlik darajasi o'sdi.

Koreya fond bozorida ham beqarorlik yuz berdi, qimmatli qog'ozlarni sotish uni sotib olishdan 29,5 mlrd.dollardan ko'p bo'ldi. Koreya banklari daromadlari deyarli 30%ga qisqardi. 2008 yilda global moliyaviy inqirozning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks reja ishlab chiqilib, unga ko'ra jahon bank tizimi, valyuta va fond bozorlarida yuz bergan salbiy holatning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar qo'llanishi ko'zda tutildi.

Hukumat inqirozdan chiqish dasturini uchta bosqichga bo'lib, har bir bosqichning vazifalari belgilandi: birinchi bosqich "yashash uchun kurash" bosqichi bo'lib, unda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- likvidlikni ta'minlash;
- o'z vaqtida amalga oshiriluvchi moliyaviy ekspansiya;
- yangi ish joylarini yaratish;
- ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish.

Ikkinchi bosqich "inqirozdan chiqish" davri bo'lib, unda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- iqtisodiyotni restrukturizatsiya qilish;
- inson resurslarini rivojlantirish;
- davlatning yangi "yashil" siyosati
- davlat sektorini qisqartirish.

Uchinchi bosqich "o'sish" bosqichi bo'lib, unda quyidagi yo'nalishda faoliyat olib boriladi:

- fan texnika taraqqiyotiga investisiyalarni kengaytirish;
- yangi iqtisodiy o'sish omillarini ishga solish;
- ekologik jihatdan toza ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- globallashtirish sharoitlariga moslashuv.

Koreya respublikasi hukumati inqirozga qarshi dasturida quyidagi oltita yo'nalish bo'yicha ish olib borishni rejalashtirdi:

- moliyaviy rag'batlar paketi;
- valyuta likvidligini ta'minlash;
- moliyaviy bozorni barqarorlashtirish;
- yangi ish joylarini yaratish va kadrlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash;
- kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlash;
- qurilish sektorini qo'llab-quvvatlash.

Moliyaviy rag'batlar paketi birinchidan soliqlar stavkasini pasaytirishni ko'zda tutsa, ikkinchidan, davlat tomonidan moliya va ishlab chiqarish sektorini

qo‘llab-quvvatlash uchun 16 trln von miqdorida mablag‘ ajratildi. Shu bilan birga davlatning soliqlarni kamaytirish natijasida kompaniyalar 35,3 trln. von miqdorida xarajatlari kamaydi.

### 3.1-jadval

#### Koreya Respublikasining 2000-2010 yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yil	YaIM mlrd. Doll	aholi jon boshiga YaIM, ming doll	YaIM ning o‘sishi , %	qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilik ning o‘sish sur‘atlari,%	Sanoat ning o‘sishi,%	xizmatlarni ng o‘sishi, %;
2000	511.8	10 841	8.5	1.2	8.1	6.1
2001	482.0	10 162	3.8	1.1	2.2	4.6
2002	546.9	11 493	7.0	- 3.5	7.6	5.4
2003	605.2	12 646	3.1	-5.5	5.5	-2.8
2004	667.4	14 100	4.7	7.4	11.4	-0.5
2005	695.4	15 000	4.2	0.5	7.0	1.9
2006	887.5	18 401	5.1	-1.5	8.4	4.1
2007	969.9	20 045	5.0	1.1	6.5	4.8
2008	837.4	17 700	2.3	3.5	3.3	2.3
2009	834.06	17 110.093	0.3	8.6	9.8	2.7
2010	1 014.482	20 756.246	6.3	1.0	7.2	2.6
2011	1 163.847	23 749.237	3.6	8.3 (II kvartal yakuni)	1,4 (II kvartal yakuni)	1,2 (II kvartal yakuni)

**Manba:** Koreya Respublikasi Milliy statistika boshqarmasi

Bu chora-tadbirlar jumlasiga milliy banklarga xorijiy qarzlarni bo‘yicha kafolatlar berish, milliy valyuta likvidligini ta‘minlash, fond bozorini barqarorlashtirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro inqirozga

qarshi chora-tadbirlarda qatnashish kabilar kirdi. Davlatning inqirozga qarshi dasturiga ko‘ra zarur mablag‘lar davlatning valyuta zahiralaridan olinishi ko‘zda tutildi.

Koreya Respublikasi prezidenti Li Men Bak tomonidan “747” dasturiga inqiroz tufayli o‘zgartirishlar kiritish zaruriyati vujudga keldi. Natijada Koreya Respublikasining inqirozga qarshi choralar va 2018 yilgacha rivojlanishi dasturi «New Growth Engines Initiative» (“Yangi o‘sish bosqichlari tashabbuslari”) shakllanib, u “747” dasturi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga yangi dasturni amalga oshirish uchun davlat tomonidan 5,48 mlrd. dollar ajratildi. Inqirozga qarshi dastur doirasida xususiy sektorga 68,4 mlrd dollar investisiyalar kiritish ko‘zda tutildi, bunday investisiya xususiy sektorda ishlab chiqarish hajmini 2008 yildagi 116 mlrd. dollardan 2013 yilga kelib 253 mlrd.doll.ga ortishi kutiladi, eksport hajmi 2009 yildagi 120,8 mlrd.doll.dan 2013 yilga kelib 306,9 mlrd.doll.ga, 2018 yilda 795,4 mlrd. dollarga yetishi kerak.

Shuningdek, dastur doirasida Koreya hukumati moliya bozorini barqarorlashtirish va banklar likvidligini saqlab qolishga ham katta ahamiyat qaratgan. Buning isboti sifatida qo‘ydagilarni keltirish mumkin: mamlakat oltin-valyuta zahiralaridan avval 100mlrd AQSh dollari, keyinchalik yana 30mlrd AQSh dollari miqdoridagi pul mablag‘lari ajratildi; Shuni eslatib o‘tish joizki, milliy banklarning tashqi qarzlari 2009yil yakunlari bo‘yicha tahminan 80mlrd. AQSh dollari miqdorida baholangan. Koreya Banki hamda hukumat qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va Repo turdagi shartnomalarni amalga oshirish orqali milliy moliya bozorlarida vonnaning likvidligini ta‘minlash, davlat obligatsiyalarini sotib olish va muddatdan oldin monetar barqarorlashtirish obligatsiyalarini chiqarish; xorijiy valyuta bozorida barqarorlikni ta‘minlash uchun kursning keskin o‘zgarishining oldini olish; uzoq muddatli pul kirimlariga nisbatan soliq imtiyozlarini berish; hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlanishi va mamakatga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga katta e‘tibor qaratish kabi tadbirlarni amalga oshirgan.

“Mudis” (Moody’s) xalqaro reyting agentligi Janubiy Koreya hukumatiga yo‘naltirilgan xatida, quydagilarni ta‘kidlab o‘tgan: “Bizning birinchi taasurotimiz

shuki, jahon kredit bozorlariga bo'lgan ishonch defesiti sharoitida, Koreya banklarining hukumatlari shunga o'xshash choralarni qabul qilgan mintaqadagi boshqa mamlakatlar bank tizimlariga nisbatan noqulay ahvolda tushib qolmasligi uchun bunday choralar zarurdir.

Masala shundaki, bu choralar yetarli bo'lishidir, ya'ni xammasi kreditorlarning bunga qanday munosabatda bo'lishi, shuningdek Koreya Respublikasi sharoitiga dunyoda yana qanday real va potensial qiyinchiliklar ta'sir ko'rsatishidadir.”<sup>31</sup>

Shuningdek, hukumat hamda Koreya Banki milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash dasturi asosida, davlat investisiyalari hisobidan Koreya Sanoat bankiga 1 trln. von miqdorida mablag'ni kiritgan. Bunday imtiyoz o'z o'rnida kichik va xususiy korxonalariga qo'shimcha kreditlar ajratishga yordam berdi. Shu bilan birga hukumat, inqirozga qarshi chora-tadbirlari doirasida qabul qilingan moliyaviy yordam iqtisodiyotning real sektoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib va kamida xususiy tadbirkorlik korxonalarining 40%, 2010yilning birinchi yarmiga 22.3% va 2011yil oxiriga yana 17.7%, inqirozdan butunlay chiqib ketishiga ishonch bildirmoqda.


Shu bilan birga ichki choralardan tashqari mamlakat tashqi choralar ham qabul qildi. 2009yil dekabr oyida ASEAN +3 mamlakatlari o'rtasda inqirozga qarshi 120 mlrd AQSh dollar miqdoradiga pul mablag'lik valyuta fondi tuzildi. Yig'ilish qatnashchilarining ta'kidlashlaricha, fond jahon moliyaviy xayotida oshib borayotgan risklarni oldini olishga hamda mintaqada barqarorlikni ta'minlashga qaratilgandir. Iqtisodchilarning ta'kidlashlaricha bu fond, Xalqaro Valyuta Fondining mintaqadagi ekvivalentidir. Koreya moliyaviy vaziri o'rinbosari Sin Chje Yun ta'kidlaganidek: “valyuta fondini tuzilishi jahon hamjamiyatiga moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda Osiyo mamakatarining qo'shma xarakatlarini nomoyon etadi”.<sup>32</sup>

---

<sup>31</sup> <http://www.infokorea.ru>

<sup>32</sup> <http://rosfincom.ru>

“Chiang May inisiativasi” nomini olgan bu fond, \$24mlrd ASEAN mamlakatlari pul mablag‘lari bilan, qolgan qismi esa Yaponiya-\$38,4 mlrd, Xitoy-\$38,4 mlrd va Janubiy Koreya \$19,2 mlrd. mamlakatlari pul badallari bilan shakllanadi.



### 3.1-rasm. Inqirozga qarshi valyuta fondida mamlakatlarning ulushi

Imzolangan bitimga asosan, fondning har bir ishtirokchi mamlakati svop-liniyalari shartida o‘zining milliy valyuta kursini barqarorlashtirish uchun o‘z milliy valyutasini amerika dollariga almashtirishi mumkin. Pul mablag‘ari shuningdek, qisqa muddatli likvidlik inqiroziga qarshi kurash uchun, hamda to‘lov balansidagi buzilishlarni oldini olish maqsadida ishlatilishi mumkin.<sup>33</sup>

Albatta hukumatning bunday chora-tadbirlari o‘z natijasini berib, Koreya iqtisodiyotida ijobiy o‘shish kuzatildi. 2009yilda YaIM 1,356trln AQSh dollarini, uning o‘shish sur‘ati 0.2%ni<sup>34</sup>, iste‘mol narxlari inflyatsiyasi 2%ni, bazis inflyatsiya 1.9%, ishsizlik darajasi 4.1%ni, eksport 355,1mlrd AQSh dollarini, import 313,4mlrd AQSh dollarini tashkil etdi.<sup>35</sup> Mamlakat tashqi qarzi 2008yilda 32.6%ni tashkil etgan bo‘lsa, 2009yil 28%ni tashkil etdi. O‘z navbatida bu ko‘rsatkichlar Janubiy Koreya inqiroz ta‘sirini tez sur‘atar bilan bartaraf etayotganidan hamda iqtisodiyoti tiklannayotganidan dalolat beradi.

### 3.3. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi rivojlanishi xususiyatlari

<sup>33</sup> <http://rosfincom.ru>

<sup>34</sup> <http://www.nytimes.com/aponline/2010/01/25/business/AP-AS-SKorea-Economy.html>

<sup>35</sup> <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/ks.html>

O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo‘lgan bank tizimining rivojlanishini tahlil qilib qaraydigan bo‘lsak, uning rivojlanishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

– birinchi bosqich XIX asrning oxiridan 1930-32 yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr ichida oldingi mavjud bo‘lgan banklar zaminida Sobiq Sovet Ittifoqining kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda 30-yillarda iqtisodning rivojlanishiga mos keluvchi banklar: tarmoq banklari, o‘lka banklari, tijorat banklari, maxsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko‘rsatgan;

– ikkinchi bosqich 1932 yildan 1959 yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda banklar faoliyatida o‘zgarishlar yuz berdi va banklar veksel orqali kreditlashdan (o‘sha davrlarda bu kreditlash amaliyotda «egri» kreditlash deb nom olgan) to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonalarini kreditlashga o‘tkazilgan.

Bu davrda xo‘jaliklar o‘rtasidagi vazifalar taqsimlangan va iqtisodiyot sohalari bo‘yicha banklar tashkil qilingan hamda bu banklar faqat shu sohalarni uzoq muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug‘ullangan. Davlat banki esa asosan qisqa muddatli kreditlash jarayonlarini olib borgan;

– uchinchi bosqich 1959 yildan 1988 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qilinib, mamlakatdagi barcha kredit munosabatlarini olib borish maqsadida uchta bank tashkil qilindi. Bular: Davlat banki, qurilish banki, tashqi savdo banki bo‘lgan. Davlat banki iqtisodiyotning barcha sohalariga faqat qishloq xo‘jaligining ba’zi ehtiyojlari uchun uzoq muddatli kreditlar berilgan) qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullangan. Qurilish banki kapital qo‘yilmalar bilan bogg‘liq bo‘lgan xarajatlarni, qurilishni moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar berish bilan bog‘liq operasialarni bajargan. Tashqi savdo banki Moskvada joylashgan bo‘lib, mamlakatning eksport-import bilan bog‘liq faoliyatini boshqarib borgan;

– to‘rtinchi bosqich bank tizimini qayta tashkil qilish davri bo‘lib, u 1988 yildan 1990 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Bu davrda bank tizimida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi va Davlat banki bilan bir qatorda maxsus tarmoq banklari tashkil qilindi.

Bu banklar jumlasiga, Sanoat Qurilish banki, Agrosanoat banki, Uy-joy qurilish va ijtimoiy ta'minot banki, jamg'arma bank va tashqi iqtisodiy faoliyat banki kabilar kiradi. Bu banklar faoliyatining xususiyatli tomoni shunda ediki, ular o'zi xizmat ko'rsatadigan sohaga uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish huquqiga ega edilar.

Shu davrdan boshlab Davlat bankidan kreditlash funksiyasi olib tashlandi va u emission bank sifatida faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi. 90-yillarda bank tizimini qayta tashkil qilishdan asosiy maqsad mamlakatda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda banklar zimmasiga korxonalar va tashkilotlarga kompleks xizmat ko'rsatishni ta'minlash va korxonalar bilan banklar o'rtasidagi munosabatlarni xo'jalik hisobiga o'tkazish, quyi bank muassasalarining huquq va majburiyatlarini oshirishdan iborat edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimini qator kamchiliklari ro'yobga chiqdi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi. Albatta, bu bozor iqtisodiyotiga ilk qadamlar qayta qurish sharofati bilan bozorga xos ba'zi bir belgilarni totalitar iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan tushuniladi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy srukturasini o'zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimni rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastakka aylantirish ko'zda tutilgandi.

Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri asosan O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrni quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil qilish mumkin:

– mustaqil O'zbekiston bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichi. Bu 1991-1994 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda 1992 yilning sentyabrgacha O'zbekiston davlat banki sobiq SSSR Davlat bankining respublika bo'limi sifatida faoliyat ko'rsatdi va u kredit resurslarni davlat korxonalari miqyosida taqsimlash, emission operasialarni olib borish bilan shug'ullandi. Qolgan tarmoq banklar ham davlat mulkiga asoslangan edi.



O‘zbekistonda ikki pog‘onali bank tizimini tashkil qilishga 1988 yildan boshlab kirishilgan bo‘lsada, bu maqsadning to‘liq amalga oshirilishiga sharoit 1994 yildan boshlab yuzaga keldi. Bu davrga kelib Markaziy bankning tashkiliy tarkibiy asosi, faoliyat olib borish uslubi o‘zgardi, tijorat banklarning soni va ular bajaradigan operatsiyalar salmog‘i oshib bordi.

Bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichida markazlashgan rejalashtirishda Markaziy bankning mavqei hali ham yuqori edi, sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O‘zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimining tashkil etilishi tamal toshi 1991 yil 15 fevraldagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi» qonun hisoblanadi. Bu qonunga binoan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak, u faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot berish o‘rinli ekanligi belgilab berildi. Bu qonunni amalga tatbiq etish asosan Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng boshlandi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘lini tanlanganligi bois, birinchi bosqichdagi pul-kredit siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

– Markaziy bank boshchiligida keng tarmoqli tijorat va xususiy banklarni ikki bosqichli bank tizimi shaklida vujudga keltirish;

– Respublika hududida yirik chet el banklarining bo‘limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;


– Barqaror pul muomalasini ta‘minlash, kredit va naqd pul emissiyasini, asossiz o‘shishini keskin cheklash;

– O‘zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish va boshqalar.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichida davlat banklarini yangi strukturasini tashkil etish boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan banklarni tashkil qilish;
- ixtisoslashgan banklarni to‘laligicha xo‘jalik hisobiga va o‘z-o‘zini moliyalashga o‘tkazish:
- iqtisodiy tizim doirasida huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo‘ladigan kredit munosabatlari uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o‘zining kredit tizimidagi markaziy o‘rnini saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib berish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshiradi, ya’ni bankning emission faoliyati, kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo‘yildi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muassasalarga aylanadi.



3.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Tijorat banklarining turkumlanishi

Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat Qurilish banki, Kommunal Qurilish va ijtimoiy taraqqiyot banki, Agrarsanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg'arma banki xo'jaliklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalarni tobora yaqinlashtirishda ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik mavqeini saqlab qoladilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini to'liq ifoda qilolmasdi. Shuning uchun ham, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bank tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

O'zbekistonda bank tizimini tashkil qilishning ikkinchi bosqichi 1994 yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda bank tizimining takomillashgan faoliyatini belgilab beruvchi bank qonunlari: 1995 yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va 1996 yil 25 aprelda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarga asosan banklar faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi va ularning ishlash usullarini takomillashtirish choralari ishlab chiqildi.

Tijorat banklarining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida bank nazorati va monitoringini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish va xalqaro talablarga moslash, yangi schetlar tizimiga o'tish, chet el banklarining sho'bbalarini ochish, to'lov tizimini takomillashtirish, tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlar bilan operasiyalarini rivojlanlantirish, pul va valyuta bozorida banklarning aktiv faoliyatini ta'minlash kabi dolzarb masalalar hozirgi kunda mustaqil bank tizimining rivojlanishi tufayli o'z yechimini topmoqda.

Respublikamizda ikki pog'onali bank tizimini jahon tajribasida qabul qilingan tamoyillarga muvofiq shakllantirish ko'zda tutilgan. Ixtisoslashish va kredit investisiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlash Respublikamizdagi bank muassasalarining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ularning faoliyati asosan ustuvor tarmoqlar - qishloq xo'jaligi va uning

mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, uyjoy qurilishi, avtomobilsozlik savdo va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan. Hozirgi banklar aksiyador-tijorat banklari sifatida tashkil qilinib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslashgan va ular ixtisoslashgan banklar bo'lsada, boshqa tarmoqlardagi mijozlarga ham kredit va hisob-kitoblar bo'yicha xizmat ko'rsatishlari mumkin. Banklar faoliyatining universallasuvi ular o'rtasida raqobatning yuzaga kelishiga, bu esa ularning bozor iqtisodiyotiga barqaror kirib borishini ta'minlaydi.

Mustaqil bank tizimini vujudga keltirishning ikkinchi bosqichining xususiyatlaridan biri shundaki, 1995 yildan boshlab O'zbekistonda maxsus nobank kredit tashkilotlari tashkil qilina boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirish, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida maxsus moliya-kredit institutlari – «Madad» sug'urta kompaniyasi, «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasi, xususiylashtirish investision fondlari va boshqalar tashkil qilinishi respublika bank-moliya tizimining rivojlanishini tezlashtirmoqda.

Hozirda respublikadagi keng tarmoqli banklar zamonaviy talablarga javob beradigan shaklda xo'jaliklar, tashkilotlar va aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

### **2.3. O‘zbekiston-Koreya bank tizimlarining hamkorligi yo‘nalishlari**

O‘zbekiston hamda Koreya Respublikalarini umum e‘tirof qilingan qoidalar(prinsiplar) va xalqaro huquq me‘yorlariga asoslangan milliy hamdo‘stlik hamda hamkorlik munosabatlari bog‘lab turadi. Ikkala mamlakat tomonidan ham, iqtisodiy, siyosiy va ma‘daniy aloqalarni chuqurlashtirishga katta e‘tibor qaratiladi. Koreya Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridan birinchilar qatorida 1991yil 29dekabr kuni O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan davlatdir. 1992yilning 29yanvarida esa mamlakatlar o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1992yilning iyunida mustaqil O‘zbekiston prezidenti I.A.Karimov Koreya Respublikasiga birinchi bora rasmiy tashrif buyurdi. 1994yilning iyun oyida esa Koreya Respublikasi rahbari javob tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi. Sammitlar davomida imzolangan kelishuvlar mamlakatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va gumanitar hamkorliklarga zamin yaratdi. Mamlakatlar o‘rtasida barcha sohalardagi ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishi zaminini siyosiy sohada muammolarning yo‘qligi hamda kelishilgan-qonuniy asos tashkil etadi.

Koreya Respublikasi O‘zbekistonda bo‘layotgan bozor islohatlarini hamda demokratik o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlab, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishga moliyaviy-iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda Koreya Respublikasi O‘zbekistonning eng yirik investorlari va savdo-hamkorlaridan biridir.

O‘zbekiston hamda Koreya moliyaviy institutlari o‘rtasida hamkorlik 1995yilda O‘zbekiston TIF Milliy Bankining Koreya “Korea Exchange Bank” bilan korrespondentlik aloqalarining o‘rnatilishi bilan boshlangan. Hozirgi kunda O‘zR TIF Milliy Banki Koreyaning 14ta banklari bilan korrespondentlik aloqalarini o‘rnatgan. Ulardan 8tasi «The Banker» jurnali versiyasiga binoan, “dunyoning eng yaxshi banklari 1000ligi” ga kiradi:

№	nomi	Mamlak atdagi o‘rni	Dunyod agi o‘rni	Aktivlari (mlrd. AQSh doll)	Kapital (mlrd. AQSh doll)
1.	Kookmin Bank	1	56	248,9	16,2
2.	Woori Bank	2	65	266,6	14,4
3.	Shinhan Financial Corp.	3	77	222,5	11
4.	Hana Bank	5	93	134,8	9,2
5.	Industrial Bank of Korea	6	118	130,5	7,1
6.	Korea Exchange Bank	7	119	90,7	7,1
7.	Pusan Bank	11	380	23,3	1,3
8.	Kwangju Bank	12	554	14,9	0,6

Manba: «The Banker» jurnali 2008yil iyul

Shuningdek:

9. Export-Import Bank of Korea
10. Korea Development Bank
11. National Federation of Fisheries Cooperatives  
va Seuldagi yirik horijiy banklar bo‘limlari:
12. Deutsche Bank
13. Oversea Chinese Banking Corp. Limited.
14. Citibank Korea

O‘zR TIF Milliy Bankining savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bo‘yicha Koreya banklari orasidagi asosiy hamkorlari Hana Bank, Korea Development Bank, Shinhan Bank va Woori Bank hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston TIF Milliy Banki tomonidan koreyalik ta’minotchilarning ishtiroki asosida kichik tadbirkorlik sohasida umumiy miqdori 9.8mln AQSh dollariga teng bo‘lgan 5ta loyiha amalga oshirilgan.<sup>36</sup>

Janubiy Koreya O‘zbekiston Respublikasining eng yirik investision hamkorlaridan biri bo‘lib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan investisiyalari

<sup>36</sup> Ўзбекистон ТИФ Миллий Банки маълумотиға кўра

2mlrd. dollar miqdordan oshidi. Eng yirik loyihalari neftgaz, neftkimiyo, logistka, qurilish, tog' ruda tarmoqlarida amalga oshiriladi. Bunga eng yorqin misollardan biri Navoi erkin iqtisodiy hududidir. Unda joylashgan kontinentlararo intermodal logistika markazi MDHda yagona hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, xorijda bu hududga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. 2009yil mart oyida Seulda O'zbekistonda investision xamkorlik imkoniyatlari mavzuzida konferensiya bo'lib o'tgan. Natijada, umumiy 500million AQSh dollari miqdoridagi, 35ta investision loyihalar to'g'risida kelishuvlar tuzilgan. Hozirda, "Navoi" erkin iqtisodiy hududida umumiy 187million AQSh dollari miqdoridagi 19ta loyiha amalga oshirilib, 2010yil ikkinchi yarmida kimiyo sanoati, neftkimiyo, elektrotexnika, mashinasozlik, farmasevtika va boshqa tarmoqlarda ishlaydigan korxonalarini ishga tushirish bo'yicha yana 16ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilshgan.

Shuningdek, Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myon Bakning 2009yil may oyida O'zbekistonga rasmiy tashrifi davomida, O'zbekiston bilan "Yangi ipak Yo'li" loyihasini taklif etdi. Bu loyihani Koreyaning ilg'or informasion texnologiyalari bilan O'zbekistonning keng logistik va temir yo'l tarmoqlarini ishlatgan holda amalga oshirish orqali, ikki mamlakat yurtboshlari ikkitomonlama foydali hamkorlikni yanada kengaytirib, uzoq muddatiligini ta'minlash maqsadini tasdiqlashdi. Sammitlar borasida tomonlar o'rtasida 37 kelishuvlar imzolandi. Shu bilan birga O'zbekiston TIF Milliy Banki bilan Koreya Eksim Banki o'rtasida xorijiy investorlar loyihalarini moliyalashtirish uchun umumiy miqdori 100mln. AQSh doll. bo'lgan kredit liniyasini taqdim etish to'g'risida Memorandum imzolandi.

Koreya O'zbekistonda ta'lim, avtomobilsozlik, tekstil sanoati, informasion texnologiyalar, infratuzilma, qurilish, neft va gaz kabi soxalarda yangi loyihalarni amalga oshirishg e'tibor qaratmoqda.

"Koreyaning Gaz Korporatsiyasi" bilan hamkorlik asosida Janubiy Koreya tomonidan 3,12 milliard AQSh dollari miqdorida investisiyalar kiritish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, muzokaralar natijasida, Respublika Koreya va Respublika O‘zbekiston o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik fondi (EDCF) tomonidan 2008-2011 yillar muddatiga imtiyozli qarzlar berish to‘g‘risida, alternativ energiya manbalarini rivojlantirish va energiyani tejaydigan texnologiyalar sohasida, Ustyurt gaz-kimiyo kompleksi loyahasini qurish to‘g‘risida bitimlar imzolandi. Oxirgisining qiymati 3miliard AQSh dollaridan yuqori baholanadi.

Shu qatorda, 2009 yil 11may kuni Do‘rmon qarorgohida Koreya Prezidenti bilan bo‘lib o‘tgan rasmiy uchrashuv doirasida, Islom Karimov va Li Men Bak o‘rtasida qo‘shma bayonot imzolandi. Unga asosan, diplomatik pasport egalari bo‘lgan fuqarolar uchun vizasiz kirish to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Eksim banki o‘rtasida “ V.Voxidov nomidagi kardiojarrohlik markazini zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan ta‘minlab bo‘lish” uchun 10million AQSh dollari qiymatida iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik fondi tomonidan lgotalik kredit ajratish to‘g‘risida bitimlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi bilan sanoat komplekslari Koreya korporatsiyasi o‘rtasida “Navoi ” erkin-iqtisodiy hududiga koreys investisiyalarini jalb qilish to‘grisidagi Memorandum, “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi bilan Koreya milliy neft kompaniyasi o‘rtasida Farg‘ona viloyatida investision blok ishlab chiqish to‘g‘risida Memorandum imzolandi.<sup>37</sup>

2008 yilda ikki mamlakat orasidagi savdo hajmi 63% ga o‘sdi va 1,4 mlrd. doll. tashkil etdi. Global iqtisodiy resessiya tufayli 2009yilda ikkitomonlama savdo hajmi ozgina kamayib, 1,2mlrd. dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizda 351ta koreys-o‘zbek qo‘shma korxonalar va 91 ta firma va kompaniyalar o‘z vakolatxonalarini ochib faoliyat yuritmoqdalar.<sup>38</sup>

Janubiy Koreyaning bank tizimidagi islohotlari hamda bank tizimini yanada takomillashtirish yo‘nalishlaridagi banklarni liberalizatsiya qilish, uzoq muddatli

---


<sup>37</sup>[http://www.pressservice.uz/#ru/news/show/oficialnyie\\_vizityi\\_v\\_uzbekist/prezident\\_respubliki\\_koreya\\_li\\_myon\\_bak/](http://www.pressservice.uz/#ru/news/show/oficialnyie_vizityi_v_uzbekist/prezident_respubliki_koreya_li_myon_bak/)

<sup>38</sup> <http://www.press-service.uz>



kirimlarga imtiyozlar yaratish, tijorat banklarini yirik moliyaviy guruhlarga aylantirish, iqtisodiyotning ba'zi tarmoqlarini yanada rivojlantirish uchun ixtisoslashgan banklar faoliyatini yo'lga qo'yish, tadbirlarini O'zbekiston misolida ham amalga oshirish maqsadga muvofiq xisoblanishi mumkin. Shuningdek mamlakatlar islohatlarida ba'zi o'xshash tomonlar ham mavjud bo'lib, Koreyada kasodga uchragan yoki arafasida turgan korxonalar yanada imtiyozlar yaratib, ularning kredit muddatlari cho'zilib berilmoqda, hozirgi kunda respublikamizda ham tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida banklar tomonidan kasodga uchragan korxonalarni sotib olib ularni sog'lomlashtirib, qaytadan ishga tushurish faoliyati rivojlanib bormoqda. Respublikamizda moliya-bank tizimini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi qat'iy xalqaro talablarga javob beradigan tizimlardan biridir.

2012 yilda O'zbekiston –Koreya munosabatlarida muhim bosqich UzKDB bankka asos solinishi bo'ldi. Korea Development Bank (KDB) Royal Bank of Scotland Uzbekistanning 82,3% aksiyalariga ega bo'ldi. Korea Development Bank (KDB) avvaldan O'zbekiston bozorida faoliyat yuritardi. U 2006 yilda UzDEU Bankdagi Koreyaga qarashli Daewoo Securities bankining 61% aksiyasini sotib olib, UzKDB ni tashkil etgan edi. 2007-yilda RBS, RBS, Fortis va Santander birlashmasi (shirkati ) ABN Amroni 114 milliard AQSh dollariga sotib oldi va shu jumladan “ABN Amro Bank NB” o'z vaqtida O'zbekistondagi eng yirik qo'shma bank, 2008 yilda RBS O'zbekiston MB deb



### 3.3-rasm.UzKDBning moliviy ko'rsatkichlari

nomi o'zgartirildi. Ikki bankning birlashuvi natijasida, UzKDB bank O'zbekistondagi eng yirik xorij bankiga aylanadi.

## XULOSA

Bugungi kunda bank tizimi – bozor iqtisodiyotining eng muhim tuzilmalaridan biri. Banklar va tovar ishlab chiqarish hamda muomala sohasi tarixan birgalikda rivojlanib kelmoqda va chambarchas bog‘lanib ketgan. Bunda banklar kapitallarni qayta taqsimlashda vositachi sifatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Tijorat banklari tadbirkorlik korxonalarining alohida toifasi sifatida ko‘rib, moliyaviy vositachilar degan nomga sazovor bo‘lgan. Ular xo‘jalik faoliyati jarayonidan bo‘shagan kapitallar, aholi omonatlari va boshqa pul mablag‘larini jalb etadilar va vaqtinchalik foydalanish uchun ularni qo‘shimcha kapital talab etadigan boshqa iqtisodiy agentlarga beradilar. Banklar pul bozorida tovarga aylanadigan yangi talab va majburiyatlarni yuzaga keltiradi.

2008 yilda avj olgan jahon moliyaviy inqirozi global moliyaviy tizimga ta‘sir ko‘rsatdi va zanjir reaksiyasi bilan turli mamlakatlar iqtisodiyotining resessiyasiga olib keldi. Birinchi navbatda bank tizimlari barqarorlikni yo‘qota boshladilar, keyinchalik likvidlik inqirozi kelib chiqdi. Ko‘plab korxonalarining kasodga uchrashi, kredit tashkilotlari va sanoat kompaniyalarining qo‘shilishi va yutilishi natijasida bir qator investisiya loyihalari tugatilishi, ishchi o‘rinlarining qisqarishi va xakozo muammolar kelib chiqq boshladi. Inqiroz jahon xo‘jaligining tashqi iqtisodiy aloqalari o‘rnatilgan barcha mamlakatlarga ta‘sir ko‘rsatdi.

Koreya Respublikasi prezidenti Li Men Bak tomonidan takif etilgan “747” dastur doirasida Koreya hukumati moliya bozorini barqarorlashtirish va banklar likvidligini saqlab qolishga ham katta ahamiyat qaratgan. Koreya Banki 2008-2009yillar davomida o‘zining pul-kredit siyosatini davom ettirgan holda, asosiy urg‘uni iqtisodiyotni va moliyaviy bozorlarni barqarorlashtirishga berdi. Shuningdek, hukumat bank tizimidagi muammolarini hal qilish maqsadida mamlakat oltin-valyuta zahiralaridan avval 100mlrd AQSh dollari, keyinchalik yana 30mlrd AQSh dollari miqdoridagi pul mablag‘lari ajratildi; Shuni ta‘kidlash joizki, milliy banklarning tashqi qarzlari 2009yil yakunlari bo‘yicha tahminan 80mlrd. AQSh dollari miqdorida baholangan. Koreya Banki hamda hukumat

qimmatli qog'ozlarni sotib olish va Repo turdagi shartnomalarni amalga oshirish orqali milliy moliya bozorlarida vonnaning likvidligini ta'minlash, davlat obligatsiyalarini sotib olish va muddatdan oldin monetar barqarorlashtirish obligatsiyalarini chiqarish; xorijiy valyuta bozorida barqarorlikni ta'minlash uchun kursning keskin o'zgarishining oldini olish; uzoq muddatli pul kirimlariga nisbatan soliq imtiyozlarini berish; hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlanishi va mamakatga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga katta e'tibor qaratish kabi tadbirlarni amalga oshirgan.

Xalqaro iqtisodiy sharoitdagi o'zgarishlar Koreya bank tizimiga ta'sir ko'rsatganiga qaramay, xozirda mamlakat bank tizimini barqaror deb baxolash mumkin. Hozirda Koreya banklari dunyoning etakchi banklari qatoridan o'rin egallaydi. Moliyaviy muhit o'zgarishiga qaramasdan 2005yilda Koreya respublikasiga "Fitch Ratings" agentligi tomonidan berilgan A+ suveren kredit reytingi o'zgarishlarsiz qoldirilgan.

Janubiy Koreya hukumati tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan chora-tadbirlar banklarining tashqi qarz olishlariga e'lon qilingan kafolatlari Koreya Respublikasi siyosatini rivojlangan mamlakatlar bilan yaqinlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek mintaqadagi ba'zi mamlakatlar bilan ham, hamda mahalliy dollarni moliyalashtirish bozoridagi tanglikni yengillashtirishga yordam beradi. Hukumatning bunday chora-tadbirlari o'z natijasini berib, Koreya iqtisodiyotida ijobiy o'sish kuzatildi, bu esa Janubiy Koreya inqiroz ta'sirini tez sur'atar bilan bartaraf etayotganidan hamda iqtisodiyoti tiklannayotganidan dalolat beradi.

Janubiy Koreya O'zbekiston Respublikasining eng yirik investision hamkorlaridan biri bo'lib, Koreya Respublikasi O'zbekistonda bo'layotgan bozor islohatlarini hamda demokratik o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlab, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishga moliyaviy-iqtisodiy ko'mak ko'rsatib kelmoqda. Janubiy Koreyaning bank tizimidagi islohotlari hamda bank tizimini yanada takomillashtirish yo'nalishlaridagi banklarni liberalizatsiya qilish, uzoq muddatli kirimlarga imtiyozlar yaratish, tijorat banklarini yirik moliyaviy

guruhlarga aylantirish, iqtisodiyotning ba'zi tarmoqlarini yanada rivojlantirish uchun ixtisoslashgan banklar faoliyatini yo'lga qo'yish, tadbirlarini O'zbekiston misolida ham amalga oshirish maqsadga muvofiq xisoblanishi mumkin. Shuningdek mamlakatlar islohatlarida ba'zi o'xshash tomonlar ham mavjud bo'lib, Koreyada kasodga uchragan yoki arafasida turgan korxonalar yanada imtiyozlar yaratib, ularning kredit muddatlari cho'zilib berilmoqda, hozirgi kunda respublikamizda ham tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida banklar tomonidan kasodga uchragan korxonalarni sotib olib ularni sog'lomlashtirib, qaytadan ishga tushurish faoliyati rivojlanib bormoqda. Respublikamizda moliya-bank tizimini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi qat'iy xalqaro talablarga javob beradigan tizimlardan biridir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

### Huquqiy-me'yoriy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 1996 y. 25 apr.dagi qonuni (27.12.1996y., 30.08.97y., 15.04.99 y.,20.08.99y.larda kiritilgan o'zgarishlari bilan).
2. Koreya Respublikasining "Banklar faoliyati to'g'risida" gi 1950y. 5may dagi qonuni (13.01.98y., 27.04.02y.larda kiritilgan o'zgartirishlari bilan).
3. Koreya Respublikasining "Omonatchilarni himoya qilish to'g'risida"gi 1995y. dek.dagi akt.
4. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi, T.: "O'zbekiston", 2002.
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1995.
6. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati tug'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1996.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Xalk suzi, 09.01.2002.
8. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni. 27.06. 2008.
9. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish tug'risida"gi qonuni, 11.12. 2003.
10. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 04.04. 2002.
- 11.«Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 20.06.2005
- 12.«Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.

- 13.«Tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Toshkent. 15.06.2005.
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori. «Xalq so‘zi» 16.04.2005.
- 15.«Pul mablag‘larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 05.08.2002.
- 16.«Pul-kredit ko‘rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori.04.02.2003.

Koreya Respublikasi rasmiy statistika qo‘mitalari ma’lumotlari:

- 17.Koreya Banki yilik hisoboti 2008
- 18.Koreya moliyaviy tizimi nazorati yilik hisoboti 2008
- 19.Koreya moliyaviy tizimi nazorati chorak hisobotlari 2009
- 20.Koreya moliyaviy tizimi nazorati chorak hisobotlari 2010

Kitoblar va monografiyalar:

- 21.Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: O‘zbekiston, 2009. 56 b.
- 22.Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so‘zi.11.02.2006.
- 23.Karimov.I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investisiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida.T.,O‘zbekiston.2005 y.
- 24.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., O‘zbekiston., 2005.y.

25. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyoti yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish- asosiy vazifamizdir. Toshkent oqshomi. 13.02.2007.
26. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007
27. Dengi, kredit, banki / Pod red. Beloglazovoy G. N. Posobie dlya sdachi ekzamena. – M.: Yurayt-Izdat, 2006. – 160 s.
28. Dengi, kredit, banki / Pod red. G.N. Beloglazovoy: Uchebnik. – M.: Yurayt-Izdat, 2006. – 620 s.
29. Galanov V.A. Finansi, deneznoe obraçenie i kredit: Uchebnik. – M.: FORUM: INFRA-M, 2006. – 416 s. 2 ekz.
30. Godin A. M., Maksimova N.S., Podporina I.V. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federasii: Uchebnik. – 3-e izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K?», 2006. – 568 s.
31. Klimovich V.P. Finansi, deneznoe obraçenie, kredit: Uchebnik. – 2-e izd., dop. – M.: FORUM: INFRA-M, 2006. – 256 s.
32. Finansi, deneznoe obraçenie i kredit: Uchebnik / Romanovskiy V. M. i dr.; pod red. Vrublevskiy O.V. - M.: Yurayt-izdat, 2006. - 543s.
33. Finansi, deneznoe obraçenie i kredit: uchebnik. – 2-e izd., pererab. i dop. / V.K. Senchagov, A.I. Arxipov i dr.; pod red. V.K. Senchagova, A.I. Arxipova. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 720 s. 2 ekz.
34. Shulyak P.N. Finansi predpriyatiya: Uchebnik. – 6-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K?», 2006. – 712s.
35. Rashidov O.Yu., Toymuhamedov I.R., Tojiev R.R., Karlibayeva R.X. Pul muomalasi, kredit va moliya. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2005.
36. Neshitoy A.S. Finansi i kredit: Uchebnik. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K?», 2006. - 572 s.
37. Finansi i kredit: uchebnik / M.L. Dyakonova, T.M. Kovaleva, T.N. Kuzmenko (i dr.); pod red. prof. T.M. Kovalevoy. - 2-e izdatelstvo, pererab. i dop. - M.: KNORUS, 2006. – 376 s.



38. Finansi i kredit: Uchebnoe posobie. / pod red. prof. Kovalevoy. A. M – M.: Finansi i statistika, 2006. - 512s.
39. Kolpakova G.M. Finansi. Denejnoe obrashchenie. Kredit: Uchebnik.pos. - 2-e izdatelsvo, pererab. i dop. - M.: Finansi i statistika, 2005. - 496
40. Bankovskoe delo: Uchebnik. / Pod red. Professora O.I.Lavrushina. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika, 2005. – 672 s.
41. Dengi, kredit, banki: Uchebnik. / Pod red. O.I. Lavrushina. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika, 2005. – 464 s.
42. Yevdokimova N.A. Bankovskie sistemi zarubejnih stran: Uchebnoe posobie - S.-Pb.: Izd-vo SPbGUEF, 2004. - 120 c.
43. Maslennikov V.V. Zarubejnie bankovskie sistemi: Uchebnoe posobie. - M.: TD "Elit-2000", 2001. – 392 s.
44. Chernyavskiy S.P. Mejdunarodniy offshorniyy biznes i banki. - M.: Finansi i statistika, 2005. – 144 s.
45. Kolesov V.P. Mejdunarodnaya ekonomika: uchebnik. – M.: INFRA-M, 2004. - 474 s.
46. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya: Uchebnik./Pod red. L.N.Krasavinoy. – 2-e izd. – M.: Finansi i statistika, 2003. – 608s.
47. Mirovaya ekonomika v voprosax i otvetax: Uchebnoe posobie. / pod red. prof. Nikolaevoy I.P. – M.: Vuzovskiy uchebnik, 2006. - 186 s.

Jurnal maqolalari:

48. Delovaya Koreya. Spravochniki polpred. Sovet veteranov MID RF. Moskva 2009g. Tom XIV
49. Delovoy Uzbekistan. Spravochniki polpred. Sovet veteranov MID RF Moskva 2008g. Tom XI-XII
50. "The Banker" The Financial Times Ltd. London 2008

Ensiklopediya va lug'atlar:

51. Varlamova T. P., Sarafanova Ye. V., Neganova L. M., Azimov K. A., Arutyunyan G. S., Avt.koll. Varlamoa T.P., Avt. koll. Varlamoa T.P., Avt.koll. Varlamova T.P., Avt. koll. Varlamova T.P., Neganov L. M., Shash Natalya Nikolaevna, Vasilyev Natalya Anatolevna

52. Bolshaya ekonomicheskaya ensiklopediya: M: EKSMO, 2007 g-816s.

53. Bankovskaya ensiklopediya. Pod red. S. I. Lukash, L. A. Malyutinoy g. Dnepropetrovsk 1994.

Internet manbalari:

54. [www.bok.or.kr](http://www.bok.or.kr) Koreya bankining rasmiy sayti

55. [www.kfb.or.kr](http://www.kfb.or.kr) Koreya banklari federatsiyasi rasmiy sayti

56. [www.fss.or.kr](http://www.fss.or.kr) Koreya moliyaviy tizimi nazorati rasmiy sayti

57. <http://www.odakorea.go.kr> Koreya Respublikasi tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti

58. <http://www.infokorea.ru/>

59. [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)

60. <http://www.press-service.uz>

61. [www.nso.go.kr](http://www.nso.go.kr)

62. [www.imf.org](http://www.imf.org)

63. <http://rosfincom.ru>

64. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

65. <http://www.g20.org>

66. [www.Reuters.ru](http://www.Reuters.ru)

67. <http://www.cia.gov>

68. <http://www.Businessweek.com>

69. <http://www.nytimes.com>

70. <http://www.Moodys.com>

71. <http://www.fitchratings.com>